Ok (a) va bolgalanuvchi (b,v) chuyanlarning mikrostrukturasi:

1 – perlit; 2 – otjig grafiti; 3 – ferrit; 4 – tsementit.

TAYaNCH SUZLAR VA IBORALAR.

Konstruktsion pulatlar. Uglerodli. Legirlangan. Kam uglerodli. Urta uglerodli. Yukori uglerodli. Kam legirlangan. Urta legirlangan. Yukori legirlangan. Sifatli uglerodli va legirlangan pulatlar. Yukori sifatli pulatlar. Maxsus yukori sifatli pulatlar. Oddiy sifatli pulatlar. Sifatli, yukori sifatli, urta sifatli pulatlar. Uta yukori sifatli pulatlar. SHarikopodshipnikli. «Tez kesar» pulatlar. Yelektrotexnik pulatlar. Magnitli kattik pulat. Kuyma chuyanlar. Kayta ishlanuvchi chuyanlar. Kuymalar uchun plastinkasimon grafitli (kulrang). SHarsimon grafitli chuyan (yukori puxtalikdagi). Bolgalanuvchi chuyan.

TEKSHIRUV SAVOLLARI.

1. Pulatlar kanday kursatgichlarga karab klassifikatsiya kilinadi.
2. Oddiy sifatli pulatlar markirovkasidagi rakamlar nimani bildiradi? St5.
3. Sifatli konstruktsion pulat markirovkasidagi rakam-chi? St30.
4. Markirovka katori oxiridagi “A” xarfi nimani kursatadi?
5. R18 pulatdagi 18 nimani kursatadi?
6. 30XNMA, U10A pulardagi xarf va rakamlar nimalarni ifodalaydi?
7. CHuyanlar klassifikatsiyasi nimaga asoslangan?
8. Kuyma va kayta ishlanuvchi chuyanlar orasidagi fark nimada?

7-mavzu. Faza o'zgarishlari. Po'latni qizdirish jarayonidagi ichki struktura o'zgarishlari. Po'latni termik ishlash texnologiyasi. Po'latni yumshatish, normallash, toblash. Yumshatish, turlari. Po'latni normallash. Po'latni toblash, toblash usullari. Toblanuvchanlik va toblanish chuqurligi. Bo'shatish va uning turlari


REJA:

1. Termik ishlashga oid umumiy tushuncha va ifodalar.
2. Termik ishlash moxiyati va maksadi. Termik ishlashni diagramma xolati bilan boglik boglikligi, kritik nuqtalar.
3. Pulatni kizdirishda unda buladigan uzgarishlar. Austenit donasining usishi.
4. Pulatni sovitishda austenitda buladigan uzgarishlar. Austenitni martensitga aylanishi.
5. Termik ishlash usullari.
6. Pulatni yumshatish asoslari. Turlari.
7. Pulatni normallash.
8. Toblash asoslari. Kizdirish vakti va vositalari. Sovitish vositalari.

TERMIK ISHLASH ASOSLARI.

Termik ishlash deb, metall kotishmalarini kizdirish, ushlab turish va sovutish operatsiyalar yigindisiga aytiladi, kaysiki ichki kurulishi va strukturasi uzgarishi xisobiga kerakli xossolarni olishni maksad kilib kuyadi.

Termik ishlash oxirgi yoki oralik operatsiya bulishi mumkin. Termik ishlash natijasida struktura uzgarib, muvozanat va nomuvozanat vxolatda bulishi mumkin.




Muvozanat xolat kotishmadagi barcha jarayonlar tula tugallangandan sung amalga oshadi. Nomuvozanat xolat bunga karshi sharoitda vujudga keganda buladi.

Uzok vakt saklanadigan nomuozanat xolatga misollar: puxtalanish ("naklep"), ximiyaviy tarkibi bir xil yemasligi likvatsiya natijasida, "bulat" pulatini strukturasi.

Kizdirish natijasida atomlarning issiklik xarakatlarining kattalishishi muvozanat xolatga utishga yordam beradi.

Kritik nuktalar A xarfi bilan belgilanadi: frantsuzcha "arret" - tuxtash suzidan. A_1 - PSK chizigi buylab (727°S) joylashib perlitni austenitga utishiga tugri keladi. A_2 - MO (768°S) chizigi buylab, ferritni magnitli uzgarishini ifodalaydi.



A_3 - GS va SE chiziklariga tugri keladi.

GS - chizigi buylab austenitdan ferrit ajralib chikaboshlaydi sovutilganda; yoki ferritni austenitga aylanishi tugaydi kizdirilganda. SE buylab austenitdan ikkilamchi tsementit ajraboshlaydi sovutilganda; yoki tugaydi uning austenitdagi yerishi kizdirilganda.

Utishlar (bir xolatdan ikkinchiga) kizdirish va sovutishda xarxil temperaturada utgani uchun: kizdirilayotganda "S"; "r" - sovutilayotganda indeksleri kuyiladi: Ac_1 ; Ac_3 ; Ar_1 ; Ar_3 .

Termik ishlash usullari 3 xil:

1. Sof termik ishlash;
2. Termo-mexanik ishlash;
3. Ximiyaviy-termik ishlash.

Sof termik ishlashga: a) yumshatish, b) normallashtirish, v) toblash, g) bushatish.

PULATNI KIZDIRISHDAGI UZGARISHLAR.


AUSTENITNING XOSIL BULISHI.

Fe-Fe₃C xolat diagrammasi muvofik, yeftektoidgacha bulgan pulat Ac_3 kritik nuktadan, yevtektoid pulat Ac_1 kritik nuktadan, yevtektoiddan keyingi pulat yesa A_{st} kritik nuktadan yukori temperaturagacha kizdirilsa, faza uzgarishleri sodir bulib, bu uzgarishlar austenit xosil bulishi bilan tugaydi.

Pulat kizdirilganda **perlitning austenitga aylanish** protsessi diqqatga sazovar xodisadir. Pulat nixoyatda sekin kizdirilgandagina perlit 727°S temperaturada austenitga

aylanadi, aks xolda perlitning austenitga aylanish protsessi kechikib, uta kizish xodisasi ruy beradi. Kritik nuqtadan yukori temperaturagacha uta kizilgan perlit austenitga xar xil tezlik bilan aylanadi. Uta kizdirilgan perlitning austenitga aylanish tezligi uta kizish darajasiga boglik buladi.

Kuyidagi rasmda xar xil temperaturalarda (uta kizish darajalarida) perlitning austenitga aylanish vaktini kursatuvchi yegri chiziklar tasvirlangan.



I va II - yegri chiziklarning uzaro joylashuvi temperatura kancha yukori bulsa, **perlit** austenitga shuncha tez aylanishini kursatadi. Masalan, pulat tez kizdirilib, 800°S temperaturada ushlab turilganda perlit austenitga T_1 vakt ichida; pulat tez kizdirilib, 740°S temperaturada tutib turilganda yesa T_2 vakt ichida aylanadi. $T_2 > T_1$ diagrammadan yakkol kurinib turibdi.


V_1 nur pulatning maalum bir tezlik bilan kizdirilishini kursatadi. Bu nur I va II yegri chiziklarni a' va v' nuqtalarda kesib utadi. Demak, pulat V_1 tezlik bilan uzluksiz kizdirilsa, a_1 nuqtaga tugri keladigan t_1 temperaturada perlitni austenitga aylanishi davom yetib, v' nuqtaga tugri keladigan t_2 temperaturada tugallanadi. Agar pulat tezrok kizdirilsa, V_2 nur I va II chiziklarni a'' va v'' nuqtalardakesib utadi. Binobarin, pulat tez kizdirilsa, a'' nuqtaga tugri keladigan t_3 temperaturada perlitni austenitga aylanish davom yetib, v'' nuqtaga tugri keladigan t_4 temperaturada bu aylanish tugallanadi. Biz yukorida uzluksiz kizish yegri chiziklarini xam chizish mumkinligini kursatdik.

PULATNI SOVITISHDA AUSTENITDA BULADIGIN UZGARISHLAR.

UTA SOVITILGAN AUSTENITNING UZGARISHI.

AUSTENITNING PERLITGA AYLANISHI.

Bu jarayon austenitni **ferrit va tsementit**ga ajralishidan iborat:




A_1 kritik nuktada austenit xamda uning parchalanish maxsulotlari va perlitning erkin energiyasi bir xil, sh/u austenit perlitga aylanmaydi A_1 dan pastda perlit erkin energiyasi austenitnikidan kichik bulib koladi; shunda austenit perlitga aylanaboshlaydi. Temperatura kancha past balsa, erkin energiyalar farki shuncha katta buladi, austenit perlitga shuncha tez aylanadi.

Austenit pargalanganda ferrit va tsementit xosil buladi. Ferritda uglerod nixoyatda kam, tsementitda 6,67%. Demak, austenitning perlitga aylanishida uglerod diffuziya yuli bilan kayta taksimlanadi. Temperaturaning pasayishi diffuziyani pasaytiradi: Bu uta sovish austenitni perlitga aylanishi protsessini pasaytiradi.


Xulosa kilib aytganda, temperatura pasayishi bilan, bir tomondan $A \rightarrow P$ aylanish tezligi erkin energiya farki xisobiga tezlashadi, ikkinchi tomondan, uglerod diffuziyasi sekinlashishi xisobiga sekinlashadi.

A_1 da austenit perlitga aylanmaydi. 200°S da xam pargalanmaydi, chunki bunda uglerodning diffuziyalanish tezligi yetarli yemas.

Kuyida austenitning perlitga aylanishi **kinetik yegri chizigi** berilgan.



a nuktada austenit perlitga aylana boshlaydi.



v nuktada austenitning xammasi perlitga aylanib buladi.


Xar xil temperaturada **izotermik** (uzgarmas temperaturada) **sovutishda** a va v nuqtalarni birlashtirsak, austenitning perlitga izotermik aylanishini kursatuvchi diagramma xosil buladi.

Austenit uzgarishida xosil buladigan strukturalarni kurib chikamiz. Bu sovish tezligiga boglik.

650-700°S da perlit xosil buladi. Bunda asosiy faza tsementit buladi. TSementit plastikalari xosil bulishi xisog'iga kushni uchaskalardagi austenit uglerodga «kambagallashadi» (uglerodi utib ketadi). Bu yesa uz navbatida ferrit plastinkalarini paydo bulishga olib keladi.

Ketma-ket kaytariluvchi tsementit va **ferrit plastinkalari** paydo buladi.

Temperatura pasayishi bilan xosil bulayotgan yangi faza «zarodqsh» lari kupayadi. Bu plastinkalar sonini kupaytiradi. Albatta bunda plastinkalar ulchamlari va ular orasidagi masofa kamayadi. Buni maydalikni – disperslikni oshishi deyiladi.



600-650°S da **sorbit** (ingl. G. Sorbi)

550-600°S da **troostit** (fran. L. Trust)

500°S pastda **beynit**

Perlit, sorbit, troostit xammasi ferrit va tsementitlarning mexanik aralashmasi. Farki ularning disperiligida.

Perlit sovutish tezligi 1°S/sek da, sorbit 50-80°S/sek, da, 80-100 °Si da yesa troostit va 200-250 °S da martensit xosil buladi.

Disperslik ortishi bilan kattiklik va mustaxkamlik ortadi.

Sovish tezligi katta bulganda diffuzion jarayonlar tuxtab, $\gamma \rightarrow \alpha$ polimorf uzgarish sodir buladi. Austenitda yerigan xamma uglerod ferritda kolib, tuyingan kattik eritma xosil buladi.

Martensit – uglerodning α -temirdagi kattik eritmasi(sukilib kirgan).

Austenitni martensitga aylanishi diffuziyasiz utib, uglerod mikdori uzgarmay, fakat kristallik panjara uzgaradi (yoklari markazlashgan kub $\rightarrow$ xajmi markazlashgan tetragapol panjaraga).

Tula yumshatishda (A_{S3} dan yuqorida kizdirilib pech bilan birga sovutiladi) bunda mayda donali ferrit-tsementit aralashma buladi. Plastiklik oshib, kirkib ishlash osonlashadi. CHala yumshatishda austenit P va F ga aylanadi, ishlash osonlashadi.

Normallashtirishda (xavoda sovitibda) dagal tsementit setkasi yukolib, kuyish, prokat va bolgolashda xosil bulgan yirik donalar yukolib, mayin struktura xosil buladi.

Bushatishda martensit murtligi yukoladi.

PULATNI TERMİK ISHLASH TEXNOLOGIYASI.

PULATNI YUMSHATISH.

Pulatni A_{S3} yoki A_{S1} kritik nuqtadan yukori temperaturagacha kizdirib, sekin (uzluksiz yoki tuxtab-tuxtab) sovitish jarayoniga **yumshatish** deyiladi. Yumshatishda pulat donalari maydalashadi, kattikligi pasayadi, kesib ishlash osonlashadi, plastikligi oshadi, ichki kuchlanish yukoladi. Yumshatish ikki turga bulinadi: **I – turda A_1 yoki A_3 dan pastda, II – turda yuqorida kizdiriladi.** I – tur rekristallizatsion yumshatish xam deyiladi. Sovutish xam ikki xil: 1. Uzluksiz, 2. Uzgarmas temperaturada (izotermik).

Birinchi tur yumshatish: Maksud: sovuklayin bosim bilan ishlashda xosil bulgan ichki kuchlanishlari yukotish, kattiklikni pasaytirish. 600-727°S ichida kizdiriladi, mahlum vakt ushlab turiladi, sekin sovitiladi.

Ikkinchi tur yumshatish: maksud: donalarni maydalash, barkaror va ancha yumshok struktura olish, dendrit likvatsiyali yukotish (ximiyaviy bir xil yemasligi). Bu tur birnecha xillarga bulinadi.

Tula yumshatish. GSE dan 20-30°S yuqorida kizdirib sekin sovitiladi. Odatda yevtektoidgacha va yevtektoid pulatlar yumshatiladi – tula yevtektoiddan keyingi pulat chala yumshatiladi.

Issiklayin bosim bilan ishlangan pulatlarni va kuyma pulatlarni tula yumshatkanda donalar maydalanadi, ferrit va perlit bir tekis taksimlanadi. Pulat kuymalarda ugraydigan vidmanshtetten struktura (yirik perlit plastinkalari bilan ferritning bir-biriga kiya joylashgan yirik plastinkalari (bahzam ignalari) xam mayda donalardan iborat F bilan P ga aylanadi.

CHala yumshatish: PSK dan yuqorida kizdiriladi. Perlit kayta kristallanadi, yevtektoidgacha bulgan pulatlarda Ferrit, yevtektoiddan keyingi pulatlarda TSementit uzgarmay koladi. CHala yumshatish asosan yevtektoiddan keyingi pulatlarda ishlatiladi. Yevtektoidgacha

bulgan pulatlardan prokatlangan va bolgalangan buyumlargina chala yumshatiladi: perlit kayta kristallanadi, ichki kuchlanish yukoladi.


Sferoidlovchi yumshatish (donador tsementit xosil kilish): 740-760° gacha kizdiriladi, mahlum vakt tutib turib, sekin sovitiladi. Plastinkasimon tsementit sferoidal tsementitga aylanadi: d_{c1} yukorida Peroit Austenitga aylanadi, ortikcha tsementit uzgarmay koladi, yahni geterogen struktura xosil buladi. Buni kesib ishlash juda oson. Bu usul yevtektoiddan keyingi pulatlarga va legirlangan pulatlarga ishlatiladi. Bu chala yumshatishni bir turi.

DIFFUZION YUMSHATISH (GOMOGENLASH).

Kuyma pulat tarkibi bir xil bulmaydi: dendrit va zonal likvatsiyalar buladi. Bunday pulatni bir jinsli (gomogen) kilish uchun u A_{S3} dan 180-300°S yukori kizdirib, mahlum vakt (12-15 soat) ushlab turib sekin sovitiladi. Pulatni bu tur termik ishlashni diffuzion yumshatish yoki gomogenlash deyiladi. Pulat yukori temperaturagacha (1000-1100°S) kizdirib, shu temperaturada uzok vakt ushlab turilganda uning donalari ancha yiriklashadi. SH/u diffuzion yumshatilgan pulat kuyma strukturasi yirik donali buladi.

IZOTERMIK YUMSHATISH.

Evtektoidgacha bulgan pulat A_{S3} dan, yevtektoiddan keyingi pulat A_{S1} dan 20-30°S yukori temperaturagacha kizdirilib, sungra A_{Z1} dan 50-100°C past temperaturagacha tez sovitiladi va austenit ferrit bilan tsementitga ($A \rightarrow F + TS$) batamom parchalanguncha shu temperaturada tutib turiladi. Izotermik yumshatishning odatdagi yumshatishdan afzalligi shundaki, pulatni izotermik yumshatishda vakt kam ketadi va gomogen darajasi ancha yukori struktura xosil buladi.



PULATNI NORMALLASH.

Evtektoidgacha bulgan pulatlarni A_{S3} dan, yevtektoiddan keyingi pulatlarni A_{ST} dan 30-50°S (GSE dan) yukori temperaturagacha kizdirib, sungra xavoda sovitish jarayoni normallash deb ataladi. Maksud: yevtektoidgacha bulgan pulatlarda mayda donali struktura xosil qilish, yevtektoiddan keyingi pulatlarda yesa ichki kuchlanishlarni va naklepni yukatish, shtamplashda yoki kesib shtamplashdan oldin gomogen struktura olish.

Uglerod mikdoriga karab, normallangan pulat strukturasi – mexanik xossalari xar-xil buladi. Tarkibida uglerod mikdori kam (0,2-0,3%) bulgan pulatlar normallanganda, ularning strukturasi, xuddi yumshatilgandan kabi, ferrit bilan perlitdan iborat, lekin maydarok. SHu normallangan pulatning puxtaligi yumshatilgan pulatnikiga karaganda yukorirok, plastikligi yesa pastrok buladi.

PULATNI TOBLASH.

Pulatni A_{S3} yoki A_{S1} kritik nuqtalardan yukori temperaturagacha kizdirib, shu temperaturada zarur uzgarish bulgincha tutib turilgandan keyin uni tez sovitish protsessi tablash deb ataladi.

Evtektoidgacha pulat GS (A_{S3}) chizigidan yevtektoiddan keyingi pulatlar SK (A_{S1}) chizigidan 30-50°S yukorida kizdirib, mahlum vakt shu xaroratda tutib turilgandan keyin tez sovitilsa, mayda ninasimon tuzilishdagi martensit xosil buladi. Yevtektoidgacha bulgan pulat A_{S3} bilan A_{S1} orasida kizdirib toblansa, kizdirish davrida ferritning bir qismi austenitga aylanmay koladi va pulat strukturasi martensit va ferritdan iborat buladi: buni tablash deyiladi.

Evtektoiddan keyingi pulatni A_{S1} va A_{S3} (A_{ST}) orasida kizdiriladi: bunda tsementitning bir qismi saklanib koladi. Ortikcha tsementit pulatning kattikligini va yeyilishga chidamliligini oshiradi. A_{ST} dan yukorida kizdirilsa, austenit donalari yiriklashib, ichki kuchlanishlar xosil bulish yextimoli kuchayadi.

TAYaNCH SUZLAR VA IBORALAR.

Termik ishlash deb, metall kotishmalarini kizdirish, ushlab turish va sovutish operatsiyalar yigindisiga aytiladi. Sof termik ishlash. Termo-mexanik ishlash. Ximiyaviy-termik ishlash. Yumshatish. Normallashtirish. Toblash. Bushatish. perlitning austenitga aylanish. Perlit. Ferrit va tsementit. Austenit. Kinetik yegri chizigi. Izotermik. Sovutish. ferrit plastinkalari. Sorbit. Troosit. Beynit. Martensit. A_{S1} . A_{S2} . A_{S3} . Maydalik – disperslik.

TEKSHIRUV SAVOLLARI.

1. Termik ishlash nima? Maksadi. Turlari.
2. A_1 , A_2 , A_3 kanday nuktalar? Bularga “ch”, “s” indeksleri kuyilsa, nimani kursatadi?
3. Perlitni austenitga aylanish vakti nimaga bog'lik?
4. Martensit struktura kanday xossalari struktura? Kanday xolatda xosil buladi.
5. Normallashtirish nima? Maksadi? 30XGSNA pulatini normallashtirish xaroratini aniklang?

8-mavzu. Po'latlarni kimyoviy-termik ishlash. Po'latni sementatsiyalash. Po'latni azotlash. Azotlashni qo'llash joylari. Po'latni tsianlash. Diffuzion metallash.

Termomexanik ishlov berish.

REJA:

1. Ximik - termik ishlash asoslari. Maksadi.
2. Pulatlarni tsementitlash. Turlari.
3. Azotlash. Tsianlash.
4. Diffuzion metallashtirish.
5. Pulatlarni termo-mexanik ishlash asoslari. Yukori va past temperaturali termo-mexanik ishlash.

XIMI-K-TERM-K ISHLASH ASOSLARI

Pulatlarni **ximiyaviy-termik ishlash** jarayoni uz ichiga oladi: I – pulat sirtini yukori xaroratda u yoki bu yelemnt bilan tuyintirish; II – termik tahsir kilish, kaymni natijasida detal yuzalarining ximiyaviy tarkibi, mikrostrukturasi va xossalari uzgaradi.

Ximiyaviy-termik ishlashga **tsementitlash (uglerodlash), azotlash, tsianlash, alyuminiy bilan tuyintirish** va boshkalar kerak.

Detailg' yuzalarini u yoki bu yelemnt bilan tuyintirish uchun uni shu muxitda mahlum temperaturagacha kizdirish kerak. Kizdirishda muxit uzidan aktiv xolatdagi tuyintiruvchi yelemntlar ajratib chikarishi kerak. Tuyintiruvchi yelemnt chikaruvchi muxit 3 xil buladi: gaz xolatda, suyuq va kattik.

Ximiyaviy – termik ishlashning asosiy yelemntlar jarayonlari kuyidagilardan iborat.

Dissotsiatsiya – muxit molekulari parchalanib, tuyintiruvchi aktiv atomlar xosil bulishi: $2SO \rightarrow SO_2 + S$; $2NH_3 \rightarrow 3H_2 + 2H$. Molekulalarning necha protsenti parchalanishi uning dissotsiolanish darajasi deyiladi.

Absorbtsiya: - metall yuzasining tuyintiruvchi yelement erkin atomlarini yutishi (eritishi). Xarorat kutarilishi bilan metallning absorbtsiya kobiliyati oshadi. Tuyintiruvchi yelement atomlari metall bilan kattik eritma xosil kiladi.

Diffuziya: - tuyintiruvchi yelementning detalg' sirtidan ichkariga tomon kirishi. Natijada metall yuzasining ximiyaviy tarkibi uzgaradi: - diffuziya katlami xosil buladi. Tuyintiruvchi yelement kontsentratsiyasi katlam buyicha xarxil buladi (gradient). Agar kattik eritma sukilib kirish xisobiga bulsa, diffuziya oson utadi (S, N), urin almashish xisobiga nisbatan. SHuning uchun diffuziyali metallashtirish yukori xaroratda utkaziladi.

PULATLARNI TSEMENTITLASH (UGLERODLASH).




Pulatdan yasalgan detalg' yuzalarini uglerod bilan diffuzion tuyintirish tsementotsiya (uglerodlash) deyiladi.

Maksad: detalg' yuzalarida yukori kattiklik va ishkalanishga bardosh uzagi kovushkok va yumshok olish. Detallar mexanik ishlangan va jilvirlash uchun 0,05-0,10 mm kiytim koldirilgan bulishi kerak. TSementitlash kam uglerodli pulatlar uchun kullaniladi: S = 0, 1-0,2%.

TSementitlangan yuzada uglerod 1% ga stadi, kalindligi $t = 0,5-2,5$ mm. TSementitlash toblash va past bushitish bilan yakunlanadi. SHunda usti kattik uzagi yumshok buladi.

TSementitlash gaz va kattik muxitda olib beriladi.

Kattik muxitda maxsus pulat yao'iklarda olib beriladi. Detallar ketma-ket (kovatma-kavat) karbyurizator bilan taxlanadi. **Karbyurizator** - bu uglerodlovchi modda: **pista kumir** (dub va ok kayin daraxtidan). **Aktivlashtiruvchi** moddalar xam kushiladi: $VaSO_3$ yoki Na_2SO_3 . 930-950°S da kizdirilganda:



aktiv uglerod atomi

Xosil bulgan aktiv uglerod atomi γ -temir panjarasiga diffuziyalanadi.


Kizdirishdan oldin yao'ik usti kopkok bilan yopilib, utga chidamli loy bilan suvalanadi: xavo kirmasligi uchun. Xavo kirsas SO_2 xosil buladi, xavo kirmasa yao'ik ichidagi xavoni uzi SO ni xosil kiladi.

Kattik karbyurizatorlarda As_3 dan yukori xaroratda olib biriladi, bunda pulat austenit xolatda bulib, uglerodni uzada yeritishi yukori buladi. Kalindligi $t=1$ mm bulishi uchun 8-10 soat kizdiriladi.

Gaz muxitda tsementitlash kuplab ishlabchikarish asosiy jarayon xisobdanadi. Pulat detallar gaz aralashmasida (SO, SN4, va x.k. bor aralashma) kizdiriladi. Bu yerda yao'ikni va karbyurizatorni kizdirish yuk bulgani uchun tsementitlash vakti kam: 6-7 soat.


Termik ishlashni 3 tur bor:

1. Bir marta toblab, past temperaturada bushatish.




Detalning sirtki katlami yirik ninasimon martensitdan iborat. Bushatish bilan ichki kuchlanish yukoladi.

2. Ikki toblab, past temperaturada bushatish.



Bu detalning mexanik xossalariga yukori talab kuyilgandi kulaniladi.

Bunda mayda ninasimon martensit xosil bulib, ortik austenit kamayadi (kattiklashadi).



3. **TSementitlash xaroratining uzidayok toblash** va past temperaturada bushatish.

Bu usul faakt sirtki katlam kattik bulsa kifoya, kelgan mexanik xossalari baribir detallarga ishlatiladi. Sovik bilan ishlash koldik austenitni kup kismini martensitga aylantiradi – sirt kattikligini oshiradi.

TSementitlangan detallar kattikligi $R_s = 58-62$, uzaginikini $R_s = 25-35$.


AZOTLASH

Pulat sirtini azotga tuyintirish. Bunda sirt katlami juda kattik, yeyilishga juda chidamli va **korroziyabardosh** buladi.

Detallar uzil-kesil termik ishlangandan va silliklanib, zarur ulchamga keltirilgandan keyin azotlanadi.

Mufelg' pechi ogzi zich yopilib, ichiga detallar joylanadi, mahlum tezlikda ammiak (NH_3) yuboriladi kizdiriladi – $500-600^\circ S$.

Ammiak parchalanadi:



CHikkan azot detalg' yuziga diffuziyalanadi. α – **temir panjarasiga** kiradi. Legirlovchi yelementlarning **nitridlari** yukori kattiklik beradi (Cr, Mo, Al). **Kattikligi** $HV = 1200$; tsementitlarida $HV = 900$ yedi. SH/u odatda azotlashga legirlangan urtauglerodli pulatlar duchor kilinadi: 38X2MYuA; 35XMA, 35X2Yu.

Kimmat bulgani uchun javobgar detallar uchun ishlatiladi: ulchov asboblari, tsilindr gilg'zalari, tishli gildirak, kolen val va x.k.

TSIANLASH

Sirtki katlamni bir vakti uzoda xam uglerod, xam azot bilan tuyintirish. Bunda sirt katlami kattikligi va yeyilishga chidamliligi ortadi.

TSianlash tuz eritmalarida ($NaCN$ yoki KCN tuzlari eritmalarida) yoki gaz aralashmalari (CH_4 va NH_3) kizdirish bilan olib beriladi. TSianlangan katlam tarkibi va xossalari kizdirish xaroratiga boglik.

TSianlash 2 xil buladi: 1 – yukori temperaturali ($850-950^\circ S$); 2 – past temperaturali ($500-600^\circ S$). Xarorat yukorilashgan sari sirtki uglerod bilan tuyishi pasayadi.

Past temperaturada asosan sirt azot bilan tuyinadi. Bunga asosan tez kesar (R18) pulatidan yasalgan keschilar ducher kilinadi: yeyilishga va issikka bardoshligi oshadi. Keskich tayyor va charxlangan bulishi kerak. TSianlangan katlam $t = 0,01-0,04\text{mm}$, $HV=1000$.


Yukori xaroratda $t = 0,6-1,8\text{ mm}$ kalindlikka tsianlash 3-10 soat davom yetadi. Sung toblash va past bushotish kerak $HRC = 59-62$.

DIFFUZION METALLASHTIRISH-METALLIZATSIYA.

1. Alyuminiy bilan koplansa, Al_2O_3 xosil bulib metallni zanglashdan – oksidlanishdan saklaydi:
 $t = 0,2-0,5\text{ mm}$
2. **Xromlashda** gaz muxitida korroziyabardoshlik oshadi (800°S gacha), suvda kislotada xam, chukurligi: $t < 0,2\text{ mm}$.
3. **Silitsiyashda** (kremniy bilan tuyintirish) kislotada bardosh buladi, chukurligi: $t = 0,3-1,0$.

PULATNI TERMO-MEXANIK VA MEXANO-TERMIK ISHLASH.

Maksad: pulatning mexanik xossalarini kutarish. **Termomexanik ishlash** deb, pulatni A_3 dan yukorirok temperaturagacha kizdirib, mahlum vakt tutib turilgach, yo shu temperaturaning uzida yoki rekristallanish temperaturasidan pastrok temperaturagacha sovutilgach bosim bilanishlab, sungra toblash va toblangandan keyin past temperaturada bushatish jarayoniga aytiladi. Defomatsiyalash temperaturasiga karab termo-mexanik ishlash - TMI ikki turga bulinadi: yukori temperaturali termo-mexanik ishlash YuTMI va past temperaturali termo-mexanik ishlash - PTMI.



TMI natijasida pulatning mustaxkamlik chegarasi va plastikligi ortadi.

YuTMI da pulat A_3 dan yukorida kizdirilib, shu temperaturada mahlum vakt tutib turilib, pulat strukturasini austenitga aylantirib, sungra bosim bilan ishlangandan keyin tez sovitiladi (toblanadi), yahni austenitni martensitga aylantiradi. Past temperaturada bushatiladi.

PTMI da pulat A_3 dan yukori temperaturagacha kizdirib, uning strukturasini austenitga aylantiriladi. Sungra pulat rekristallanish temperaturasidan past ($400-500^{\circ}\text{S}$) temperaturagacha uta sovitiladi va shu temperaturada bosim bilan ishlanadi. Past temperaturada bushatiladi.

Mexano-termik ishlashda teskari: oldin deformatsiyalanadi, sung toblanadi. Bunda xam pulat mustaxkamligi ortadi.

TAYaNCH SUZLAR VA IBORALAR.

Diffuzion metallashtirish-metallizatsiya. Ximiyaviy-termik ishlash. TSementitlash (uglerodlash). Azotlash. TSianlash. Alyuminiy bilan tuyintirish. Dissotsiatsiya. Absorbtsiya. Diffuziya. Karbyurizator pista kumir. Aktivlashtiruvchi. Bir marta toblab, past temperaturada bushatish. Ikki toblab, past temperaturada bushatish. TSementitlash xaroratining uzidayok toblash. Korroziyabardosh. Ammiak. Temir panjarasi. Kattikligi HV. Xromlash. Silitsiylash. Termomexanik ishlash. Mexano-termik ishlash

TEKSHIRUV SAVOLLARI.

1. Kuyidagi faktorlardan kaysi bir uchasi ximik-termik ishlashda yeng xol kiluvchisi xisoblanadi: ximik-termik ishlash vakti; temperatura, bosim, yuzadagi aktiv yelement kontsentratsiyasi.
2. TSementatsiya kilingan tishli gildirak yuzasini shlifovka kilish kerak-mi? Yuk-mi? Nega?
3. Yuzaning ishtalanib yeyilishga karshigi kaysi usulda kattarok: tsementitlash, azotlash.
4. Termo-mexanik ishlash bilan pulatning kaysi xossalari uzgaradi? Nega?

9-mavzu. Materiallar turi va ularni qo'llash sohasi. Legirlangan po'latlar tasnifi. Olovga bardosh po'latlar. Nikel asosidagi zanglamas qotishmalar. Konstruktion issiqqa bardosh po'lat va qotishmalar. Issiqqa bardoshlik tavsifi. Perlit, martensit va martensit – ferrit toifasidagi po'latlarning qo'llanilish jarayoni.

REJA:

1. Legirlovchi yelementlarning pulat strukturasiga va xossalariga tahsiri.
2. Legirlangan pulatlarni markalanishi.
3. Kam legirlangan, tsementitlanadigan konstruktion, yaxshilanadigan konstruktion, prujina va resoralar uchun pulatlar.

Legirlovchi yelementlarning tahsiri.

Legirlovchi yelementlar pulatga atayin kiritilib, uning xossalariga va kurilishiga tahsir kiladi. **SHunaka yelementlar kiritilgan pulatlar legirlangan pulatlar deyiladi. Pulatni uzida kremniy va marganets buladi, lekin kremniy mikdori 0,4% dan oshsa, marganets 0,8% dan oshsa bunday pulatlar xam legirlangan xisoblanadi.**

Bazi legirlovchi yelementlarning mikdori juda kam bulishi mumkin: Nb, Ti mikdori 0,1% dan oshmaydi; V xa 0,005% dan oshmaydi.

Legirlangan pulatlar texnika tarakkiyoti talablari natijasida paydo bulgan. Legirlash mexanik xossalarni (mustaxkamlik, plastiklik, uyushkoklik), fizik xossalarni (elektrtkazuvchanlik, magnit xarakteristikalari, radiatsiyaga chidamliligi), ximiyaviy xossalari (zanglamaslik) uzgartirish maksadida kullaniladi.

Legirlangan pulatlar uglerodli pulatlarga nisbatan kimmat. SHuning uchun ularni yana termik ishlab kullash maksadga muvofik.

Asosiy legirlovchi yelementlarga Cr; Ni; Mn; Si; W; Mo; V; Al; Ti; Cu; B; lar kiradi. Kupincha bitta yemas, birnecha yelementlar bilan birgalikda legirlanadi: Cr va Ni ; Cr va Mn; Cr; Ni; Mo va V lar bilan.

1. LEGIRLOVCHI YELEMENTLARNING TEMIR ALLOTROPIK SHAKL UZGARISHLARIGA TAHSIRI.

Temirda yeriydigan barcha yelementlar temirning allotropik shakl uzgarishlariga tahsir kiladi. Bahzi yelementlar (Mn; Ni; Pt; Co; Zn) A_3 nuktani pasaytirib, A_4 nuktani kutaradi. Bahzi yelementlar yesa (Si; P; W; Mo; V; Al; Be; Sn; Sb; Ti; Cr) A_3 kutarib, A_4 pasaytiradi. Ferrit va austenit turgunligigi tahsir kiladi:


a) Ni, Mn, Cu, Co lar γ -kismini kengaytiradi va austenit turgunligini yerish xaroratidan uy xaroratigacha turgunligini tahminlaydi. Bunday pulatlar austenit pulatlar deyiladi.

b) Cr, Si, V, W, Mo, Al, Ti lar yesa α -kismini kengaytirib, ferrit turgunligini tahminlaydi. Bu pulatlar ferrit pulatlar deyiladi.

2. LEGIRLOVCHI YELEMENTLARNING FERRITGA TAHSIRI.

Konstruktsion pulatlarda asosiy struktura tashkil yetuvchi - bu **ferrit**dir va metall xojmining 90% dan kupini egalaydi. SHuning uchun ferrit xossalaridan pulat xossalari butunlay boglik.

Metalldagi temir atomlari ulchamlari bilan legirlovchi yelementlar atomlari ulchamlari urtasidagi fark kancha katta bulsa, kristallik panjara buzilishi (kiyshayishi) shuncha katta buladi. Mahlumki, buzilish–kiyshayish, nuksonlar soni kancha katta va kup bulsa, shuncha ferritning mustaxkamligi va kattikligi (σ_v , NV) shuncha ortib, plastiklik va uyushkoklik pasayadi.



Bu xodisa kuydagi rasmda yakkol tasvirlangan.

Barcha yelementlar ferrit kattikligini oshiradi. Ayniksa, Ni, Cr ning tahsiri kuchli va ular konstruktsion pulatlarning σ_v , NV, plastikligini va **toblash chukurligini** oshiradi.

3. LEGIRLANGAN PULATLARDA KARBIDLAR.

Element uglerodga kancha yaqin bolsa, shuncha **karbid** xosil imkoniyati shuncha yukora buladi. Bu kator aktivligi ortishi buyicha kuyidagi kator tartibida buladi. Fe-Mn-Cr-Mo-W-Nb-V-Zr-Ti.barcha karbidlar yukori kattiklikka ega. Ular 2 gruppaga bulinadi: 1) Fe_3C ; Mn_3C ; Cr_7C_3 ; Cr_{23}C_6 ; 2) Mo_2C ; WC ; VC ; TiC .ikkinchi gruppaning kattikligi ancha yukori.

4. FAZALAR UZGARISHIGA TAHSIRI.

Legirlovchi yelementlar martensit parchalanishini pasaytiradi (kobalg't, teskari, uni tezlatadi).bunday pulatlarning bushatish xarorati yukorirok buladi. Bu toblangan pulatlarni bushatish xarorati kutarilgan sari pulatning kattikligi, mustaxkamlik chegarasi, okuvchanlik chegarasi pasayib, plastiklik xossolari oshadi.

Uglerodga nisbatan legirlovchi yelementlar 2 guruxga bulinadi:

1. **Karbid xosil kilmaydiganlar:**

Ni; Si; Co; Al; Cu.

2. **Karbid xosil kiluvchilar:**

Cr; Mn; W; Mo; V; Ti; Hb; Ta; TS; Hf.

Legirlovchi yelementlar **dislokatsiyalar** xisobiga, fazalar uzgarishi, allotropik uzgarishlar, karbidlar xosil kilishi xisobiga metallning mustaxkamligini, kattiligini oshiradi. Boshka xususiyatlari xam tahsir kiladi.

Cr – ishkalanib yeyilishga karshiligini oshiradi, zanga bardomligini oshiradi. W va G bilan xarorat tahsirida defformatsiyalanmaslik kobiliyatini oshiradi. SHuning uchun legirlangan XVG pulatidan uzun ulchamli («dlinnqe mernqe») kesgichlar yasaladi, masalan protyajka.

W – utga bardoshliligini. Aynika V bilan birga masalan bu pulat – R18 – tez kesar pulati.Xar xil kesgichlar yasaladi.

Ni – kattiklikni, **zanglamaslikni** va x.k. xossalarini oshiradi. Ayniksa, nikelg' xrom bilan birgalikda: Cr-Ni – tizimidagi pulatlar.

LEGIRLANGAN PULATLARNI MARKALANISHI.

A – azot,

B – niobiy,

P – fosfor,

D – mis,

G – marganets,

V – volg'fram,

F – vanadiy,

K – kobolg't,

M – molibden, N – nikel', R – bor, T – titan,
 S – kremniy, X – xrom, TS – tsirkoniy, Yu – alyuminiy,
 CH – siyrak-er metallari.

18X2N4V	EN154	EP398
0,18% - S	“Elektrostal’g” zavodi	P – namunaviy.
2% - X	N – “tajri baviy(eksperimental’g’ nqy)”	
4% - N	154 – tartib nomeri	
1% - W		

KURILISHDA ISHLATILADIGAN KAM LEGIRLANGAN PULATLAR.

Bularda uglerod 0,1-0,25% buladi. Bu pulatlardan fermalar, kema korpuslari armaturalar va x.k. lar kiriladi. Kam uglerodli bulgani uchun yaxshi payvandlanadi. Bular temirbeton kovurgalari uchun, neft maxsulotlari va gaz kuvurlari, metall chiviklari xam yasaladi. Lekin, mashina detallari uchun onda-sonda ishlatiladi. Bu pulatlar St.1; St.2; ;St.6 deb markalanadi. Bu pulatlarning mustaxkamligi $\sigma_{o.g.} = 240$ Mpa ga teng.

Kurilishda ishlatiladigan pulatlarga kam legirlangan pulatlar : 14G2; 17GS; 14XGS; 15XSND (D-Cu). Stalg’ 15XSND kattik sovukda (-60°S) da xam ishlaveradi, chunki N + D lar sovukda xam murtlashmaydi. Bundan tashkari bular xavoda zanglamaslik kobiliyatini xam oshiradi.

Kurilishda va mashinasozlikda listlar, sortovoy prokatlar kam legirlangan pulatlar 14G2AF, 17G2AFB ($\sigma_{o.g.}=450$ MPa) dan yasaladi. Bular kushilganda, karbonitridlar xosil bulishi xisobiga puxtalanadi.

TSEMENTITLANADIGAN KONSTRUKTSION PULATLAR.

Dinamik kuch ostida ishlaydigan va ustki yuzalari ishkalanib yeyiladigan detallar kam uglerodli pulatdan ($S<0,2\%$) yasali, tsementitlanib, sungra toblanadi va past otpuska beriladi. Bunda sirtki kotlamlari yetarli kattik buladi – HRC=60 (uzagi kattikligi yesa – HRC = 20-40).

Agar legirlangan pulatlar tsementitlanib, toblansa, uzagi kushimcha puxtalanadi. Kancha kup legirlangan bulsa, shuncha kup puxtalanadi.

Uzaginging puxtalanish darajasiga karab bu pulatlar 3 gruppaga bulinadi.

Birinchi gruppaga uglerodli pulatlar (08; 10; 15; 20) kiradi. Bulardan fakat yeyilishga ishlaydigan detallar, uzaginging puxtaligi katta axamiyatga ega bulmagan detallar yasaladi. Mayda detallar uchun.

Ikkinchi gruppaga kam legirlangan xromli pulatlar kiradi: 15X; 20X. Bulardan ishkolanishga ishlaydigan va uzagi puxtaligi yukori bulishi talab kilinadigan detallar yasaladi. Agar ozgina vanadiy kushilsa (15XF), zarrachalar maydalashib, plastikligi va uyushkokligi ortadi.

Uchinchi gruppaga bunday pulatlar tarkibiga nikelg' kushiladi. Bunday pulatlardan zarbiy kuchlarga ishlaydigan va kundalang kesimi katta xomda murakkab shaklda bulgan yoki karama-karshi kuchlanishda(+;-) ishlaydigan detallar yasaladi: 20XN; 12XN3A; 12X2N4A. Nikelg' urniga titan kushilsa xam buladi: 18XGT.

Agar volg'fram yoki molibden kushilsa (12X2N4VA; 18X2N4M4) toblanish kalinligini oshiradi.

YaXSHILANADIGAN KONSTRUKTSION PULATLAR.

Bularga urta uglerodli (0,3-0,5%) va legirlovchi yelementlari 5% dan oshmogan pulatlar kiradi. «**Yaxshilanishi**» bu toblash va yukori otpusdir. Bunday pulatlar yukori mustaxkamlikka, uyushkoklikka ega; kuchlanishlar yigindisiga kam yehtibor beradi, tablanish chukurligi yaxshi. SHuning uchun zarbiy kuchlarga bemolol ishlaydi. Beshta gruppaga bulingan:

1. Stalg' 35, Stalg' 40, Stalg' 45.
2. 30X; 40X
3. 30XM; 40XG; 30XGT
4. 40XN; 40XNM.
5. 38XN3M; 38XN3MFA.

PRUJINA VA RESSORALAR UCHUN PULATLAR.

Plastik deformatsiyaga yul kuyilmaydi. Kremniy va marganets bilan legirlanadi. Tablanish va tablanish kalindligi yukori. 65; 70; 65G; 60S2; 70S3A; 60SG; 40XFA.

SHARIKLI VA ROLIKLI PODSHIPNIK PULATLARI.

Xar xil kutbli mujassamlantirilgan (udelg'nqy) kuch tahsir kiladi. Kattik, yeyilishga chidamli va nuktaviy charchamasligi (kontaktnaya ustalostg') kerak.

SHX4; SHX15; SHX15SG; SHX20SG.

TAYANCH SUZLAR VA IBORALAR.

Allotropik shakl. Legirlovchi yelementlar pulatga atayin kiritilib, uning xossolariga va kurilishiga tahsir kiladi. Ferrit. Toblash chukurligi. Karbid. Karbid xosil kilmaydiganlar. Karbid xosil kiluvchilar. Dislokatsiyalar. Zanglamaslik. Dinamik kuch. Yaxshilanish.

Pulatlarni **ximiyaviy-termik ishlash** jarayoni uz ichiga oladi: I – pulat sirtini yukori xaroratda u yoki bu yelement bilan tuyintirish; II – termik tahsir kilish, kaymni natijasida detal yuzalarining ximiyaviy tarkibi, mikrostrukturasi va xossalari uzgaradi.

TEKSHIRUV SAVOLLARI.

1. Legirlovchi yelementlar temir allotropik shakl uzgarishlariga kanday tahsir kiladi?
2. Legirlovchi yelementdarning pulat xossalariini tahsiri kanday?
3. Prujina va sharikopodshipnik pulatlari kaysi xossalarga ega bulishi kerak?
4. Legirlovchi yelementlar pulatning dislokatsion tuzilishiga kanday tahsir kiladi?
5. Pulatning dislokatsion tuzilishi bilan xossalari orasida kanday boglik bor?

10-mavzu. Aloxida xossalari po'latlar. Elektr va issiqlik o'tkazuvchanlik. Elektrotexnik. Magnit materiallari, radiatsiyaga chidamli materiallar. Sovuqqa chidamli materiallar.

REJA:

1. Bu materiallarga kuyilgan asosiy talablar
2. Ularning turlari
3. Xossalari: texnologik mexanik va x.k.
4. Ishlatilish joyi

ASBOBSOZLIK MATERIALLARI

Asbobsozlik po'latlari deganda, ko'pincha, qirqib ishlash asboblari po'latlari tushuniladi. Vaxolanki, bu guruxga o'lchov asboblari va shtamplar uchun ishlatiladigan po'latlar xam kiradi. Bu po'latlar o'ziga xos og'ir sharoitda ishlaydi. Ayniqsa metall qirquvchi keskich materiallari katta bosim ostida, yuqori xaroratda, xar xil tashqi muxit tahsirida, shiddat bilan ishqalanib yeyilish sharoitida ishlaydi. Tez kesar po'latdan yasalgan tokarlik keskichini bir turg'unlik davrida (bir charxlash bilan ikkinchi charxlash orasidagi vaqt) keskich oldingi yuzasidan 8 km uzunlikdagi qirindi sirpanib o'tadi. SHtamplar bundan og'ir sharoitda ishlaydi.

1 Qirquvchi asboblar materiallariga qo'yilgan talablar.

Kuyidagi asosiy talablar qo'yiladi

1. Etarli darajadagi yuqori qattqlik. Bu qattqlik ishlanayotgan material qattqligidan ancha katta bo'lishi lozim.
2. Kesuvchi asbobni qirqish tig'i mustaxkam bo'lishi kerak. Keskichni oldingi yuzasiga katta bosim tahsir qiladi, bir necha yuz kilogrammdan bir necha tonnagacha. Bu bosim qirqish tig'ini uchiga to'g'ri keladi. Yana qizig'i shundaki, bu bosim vaqt bo'yicha o'zgaruvchan chunki qiytim qatlami xar xilligi xisobiga kuch xam o'zgarib turadi.
3. Ishqalanib yeyilishga katta chidamlilik. Keskich oldingi yuzasidan qirindi rotorli yekskovatori tishlari kabi tirnab o'tib yuzaga ishqalanib yeyiladi. Bular xammasi yuqori xarorat ostida o'tadi.
4. Issiqqa bardosh bo'lishi lozim. Qirqish jarayonida ko'p va katta issiq chiqadi. Uglerodli asbobsozlik po'latlarni issiqqa bardoshligi 200-250°S. Umuman olganda, po'latni issiqqa bardoshliligi deb, uni qaysi xaroratgacha qizdirilganda o'zini mexanik xossalarni saqlab turish qobiliyatiga aytiladi. Tez kesar po'latlari uchun u 600°S ga, qattiq qotishmalar uchun 800-900-1000°S ga teng.

5.Keskich materiali ishlanayotgan material bilan bir-biriga yopishqoqligi iloji boricha kam bo'lishi lozim. Yopishgan xajm o'zidan keyingi kelayotgan oqim bilan o'pirib olib ketadilyulib oladi.

6.Iloji boricha keskich materialini issiqlik o'tkazish qobiliyati yuqori bo'lishi kerak. Keskich cho'qqisidagi issiqlik to'planib qolsa, cho'qqi o'ta qizib qirqish qobiliyatini yo'qotadi. (Ariqdagi suv toshgan kabi)

2. Keskich materiallari va ularning fizika-mexanikaviy xossalari.

Materiallar

- 1.Uglerodli asbobsozlik po'latlari.
- 2.Legirlangan asbobsozlik po'latlari.
- 3.Tezkesar po'latlar.
4. Qattiq qotishmalar.
- 5.Mineralo-keramik materiallar.
- 6.Olmozlar.
- 7.Jivirlovchi-abraziv materiallar.

Asbobsozlik materiallarini fizika – mexanikaviy xossalari

3 Asbobsozlik uglerodli po'latlari

Bular asosan quyidagilar; U7A; U8A; U8GA; U9A, U10A, U10GA, U12A, U13A. O'qilishi: Masalan U7A: U-uglerodli degani; 7-o'ndan bir ulushda uglerod miqdori, yahni uglerod $S=0,7\%$, A-po'lat yuqori sifatli, yahni zararli yelimentlar R, S lar xar birining miqdori 0,025% dan oshmagan degani .

Tezkesar po'latlar

Tezkesar po'latdan yasalgan keskichlar kesish tezligi yuqori, kesish chuqurligi katta, demak yuqori xaroratda ishlaydilar. Uglerodli asbobsozlik po'latlari 200°S ga qiziganda uning qattiqligi tez pasayadi (keskich o'tirib qoladi), tezkesar po'lati 600°S da xam

Fizik mexanik xossalar	U12 A	R 18	VK 6	T15K6	Minerollo-keromika
Zichlik, g/sm ³	7,8	8,73	14,7	11,1	3,9
Egil; kg/mm ² ,	360	370	140	125	30-45
Issiqlik o'tkazuvchanlik, kkal/sek S	0,09	0,07	0,145	0,065	0,01
Issiqqa bardoshligi, S	200-300	600	860	900	1200
Qattqlik, HRA	90	90	91	91	92
Qisilishga, Mustaxkamlik σ, kg/mm ²		380		400	90-150

yumshamay qirqish qobiliyatini saqlab qoladi.

Tezkesar po'latlarni turlari ko'p. Ularning bahzilarini ximiyaviy tarkibi quyidagicha:

Po'lat markasi	S, %	Cr, %	W, %	V, %	Co, %
P18	0,7-0,8	3,8-4,4	17,5-19,0	1,0-1,4	—
P9	0,85-0,95	3,8-4,4	8,5-10,0	2,0-2,6	—
P9F5	1,4-1,5	3,8-4,4	9,0-10,5	4,3-5,1	—
R9K5	0,9-1,0	3,8-4,4	9,0-10,5	2,0-2,6	5,0-6,0
R9K10	0,9-1,0	3,8-4,4	9,0-10,5	2,0-2,6	9,5-10,5
R18K5F2	0,85-1,95	3,8-4,4	17,5-19,0	1,8-2,4	5,0-6,0

Qattiq qotishmalar

Qattiq qotishmalar ko'p tarqalgan asbobsozlik materialidir. Ular kukun metallurgiyasi asosida olinadi. Tashkil yetuvchilarni maydalab kukun xoliga keltirilib aralashtiriladi. Masalan, VK6 markali qotishma uchun WC=94% va Co=6% xajmida xar ikki tashkil yetuvchi kukunlari tayyorlanadi. Olingan massani kerakli forma va o'lchamli qolipga (shtampga) solib bosim bilan presslanadi va lozim o'lchamli plastinkalar olinadi. Plastinkalar grafitli trubkali yoki yuqori chastotali vakuum pechlariga joylashtirilib tok o'tkaziladi. ($G=1500A$).

Albatta TK gruppasi VK ga nisbatan ancha qattiq issiqqa bardoshliligi yuqori. Lekin VK guruxi mustaxkamroq va zarbiy qovushqoqligi yuqoriroq.

Eng ko'p tarqalgan qattiq qotishmalar ximiyaviy tarkibi va xossalari quyidagicha: (gost 3882-74)

Qotishma markasi	SHixta (massalliq) tarkibi, %				σ_{eg} , MPa	HRA
	WC	TiC	TaC	Co	Bundan kam yemas	
Volg'framli qotishmalar						
VK3	97			3	1100	89,5
VK4	96			4	1400	89,5
VK6	94			6	1500	88,5
VK8	92			8	1600	87,5
VK10	90			10	1650	87
VK15	85			15	1800	86
VK20	80			20	1950	84
VK25	75			25	2000	82
Titan – volg'framli qotishmalar						

T30K4	66	30		4	950	92
T15K6	79	15		6	1150	90
T5K10	85	5		10	1400	88,5
Titan – tantal – volg'framli qotishmalar						
TT7K12	81	4	3	12	1650	87
TT8K6	86	6	2	6	1250	90,5

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, markalarning o'qilishi quyidagicha: VK6 - bu yerda $So=6\%$. $Wc=94\%$; T15K6 - da $So=6\%$; $TiC=15\%$ qolgani, yahni $WC=79\%$. VK gruppasidagi qotishmalar tarkibida kobolg't miqdori ortishi bilan ularni mo'rtligi kamayadi. SHuning uchun VK8 qora-dastlabki qirqishda ishlatiladi. TK gruppasi VK gruppasiga nisbatan mo'rtroq. SHu sababli, keskich chidamliligini saqlash maqsadida TK gruppasi asosan po'latlarini qirqishda ishlatilishligi tavsiya qilinadi.

Qattiq qotishmalarini qirqish-ishlash qobiliyatini mayda zarrachali (donalar o'lchami 0,5-0,15mk ga teng) qotishmalar olish bilan oshirish mumkin, masalan, VK6M. Qotishma tarkibiga tantalni qo'shilishi uni xarorati tsiklaviy (vaqti-vaqti bilan) o'zgarishda darz ketishga qarshiligini oshiradi.

Umuman olganda, VK3 - VK8 qattiq qotishmalari, asosan, uvoq qirindi (uzuluq-uzuluq qirindi) olinadigan materiallar qirqishda ishlatiladi. Masalan, cho'yan, rangli metallar, farfor, keramika va x.k.

VK10 va VK15 qotishmalari ancha yuqori qovushqoq bo'lganligidan sim olish asboblarida ("filg'erlar" da) burg'lash asboblarida ishlatiladi.

Ikki karbidli qattiq qotishmalar ko'pincha, tez qirqish jarayonlarida qo'llaniladi.

Uch karbidli qattiq qotishmalar $TiC-ToC-WC-Co$ tizimida bo'ladi. Bu gruppasi qotishmalari katta mustaxkam, vibratsiyalarga yaxshi chidamli, uqalanishga xam chidamli. Bular og'ir qirqish sharoitlarida qo'llaniladi: po'lat quymalarni, pokovkalarni qora qirqishda.

Minerallokeramik plastinkalar

Minerallokeramika bu juda mayda korund zarrachalardan tashkil topgan pollikristallik jismdir. Zarrachalarning o'lchami uch mikrondan katta yemas.

Bu asosan alyuminiy oksidi Al_2O_3 dir. Odatda minerallokeramikadan yasalgan detallar sunhiy alyuminiy oksididan olingan juda mayda paroshoklardan olinadi. Paroshokni olish uchun glinazyom 1500-1550°S gacha qizdiriladi, so'ngra juda-juda maydalanadi: zarrachalar o'lchami 1mk bo'lguncha. Qizdirib pishirish davrida bu

zarrachalar o'lchamlari kattalashmasligi uchun kukunga MgO qo'shiladi. MgO qotishma mustaxkamligiga tahsir qilmaydi.

Minerallokeramikadan detal olishni ikki usuli ko'proq tarqalgan.

1. Bosim ostida issiq xolda quyib olish;
2. Presslash usuli bilan; ayniqsa sodda formalı detallar uchun.

Minerallokeramika juda yuqori issiqqa bardoshlikka (1200°S) va shuning uchun juda yuqori tezlikda qirqish imkonini beradi. Bu ishlanayotgan materialga nisbatan ximiyaviy inert-befarq. Bu xossa ayniqsa olovbardosh va zanglamas po'latlarni qirqayotgan vaqtda katta amaliy ahamiyatga ega, chunki uning tarkibida qimmat legirlovchi yelimentlar yo'q. SHu jixatdan u arzon material.

Ko'p tarqalgan T-48 va TSM-332 markali asbobsozlik minerallokeramik qirquvchi plastinkalarning fizika-mexanikaviy xossalari quyidagicha:

1. Zichlik .	$\gamma=3,9\text{g/sm}^3$
2. Egilishdagi mustaxkamlik chegarasi	$\sigma_{\text{eg}}=25\text{-}40\text{kg/mm}^2$
3. Qattqlik	HRC=91-92
4. Issiqqa bardoshligi	1200°S
5. Erish xarorati	2000°S

O'ta qattiq materiallar.

O'z nomi bilan bular boshqa materiallar qirqa olmagan xollarda ishlatiladi. O'ta qattiq materiallardan yasalgan keskichlar bilan qattiq qotishmalar, rubinlar agatolar, yashma, filheralar-kiryalar va x.k. qirqiladi. Bulardan tashqari ular tog' jinslarini burg'alashda xam ishlatiladi. Bular tez qirqish ($V_{\text{qir}}=100\text{-}200\text{m/min}$) imkonini bergani uchun toza yuzalarni va aniq o'lchamlarni olishda ko'proq ishlatiladi.

O'ta qattiq materiallar orasida birinchi o'rinni olmoz egallaydi. Uning qattiqligi $NV_{\text{olmoz}}=10000$, volhframli qattiq qotishma VK niki $HV_{\text{vk}}=1700$, tezkasarniki $HV_{\text{tezkas}}=1300$, yahni 6 va 8 martta katta. Albatta sunhiy olmozlar (bort, ballas, karbonod) afzalroq qo'llaniladi. Sunhiy olmozlar grafitdan katta bosimda ($P\approx 200000\text{ atm}$) va yuqori xaroratda olinadi.

Olmozlar bilan keskichlar, parmalar, frezalar, qirqish tig'lari jixozlanadi.

TAYaNCH SUZLAR VA IBORALAR.

Allotropik shakl. Legirlovchi yelementlar pulatga atayin kiritilib, uning xossolariga va kurilishiga tahsir kiladi. Ferrit. Toblash chukurligi. Karbid. Karbid xosil kilmaydiganlar. Karbid xosil kiluvchilar. Dislokatsiyalar. Zanglamaslik. Dinamik kuch. Yaxshilanish.

Pulatlarni **ximiyaviy-termik ishlash** jarayoni uz ichiga oladi: I – pulat sirtini yukori xaroratda u yoki bu yelement bilan tuyintirish; II – termik tahsir kilish, kaymni natijasida detal yuzalarining ximiyaviy tarkibi, mikrostrukturasi va xossalari uzgaradi.

TEKSHIRUV SAVOLLARI.

1. Asbobsozlik materiallariga kuyilgan talablar.
2. Asbobsozlik materiallarining turlari?
3. SHtamplar kandy pulatlardan yasaladi?
4. Kattik kotishmani asosi (matritsasi) nimada?
5. Mineralokeramik materiallarning avzalligi?
6. Uta kattik materiallar kaerda kuprok ishlatiladi?

MAVZU: MAXSUS PULATLAR.

MAHRUZA REJASI:

1. Korroziya bardosh pulatlar. Xromli zanglamas pulatlar.
2. Xrom-nikelli zanglamas pulatlar.
3. Olovbardosh pulatlar.
4. Issikbardosh pulatlar.

Pulatning tashki muxit bilan ximiyaviy yoki yelektroximiyaviy uzaro tahsir yetishi okibatda yemirilish protsessi korroziya deb ataladi. Korroziyabardosh pulatlar deb xavo sharoitida, darg'yo va dengiz suvlarida, tuzlar eritmasida, ishkori va bahzi kislotalarda uy xamda yukori xaroratlarda korroziyaga karshilik kursataoladigan pulatlarga aytiladi.

Bunday pulatlar uchun asosiy legirlovchi yelemnt xromdir. Uning mikdori 12% dan kup bulishi kerak: yupka Cr_2O_3 oksid plenikasi xosil buladi, kaysiki korroziyadan saklaydi.

Yukori xromli pulatlarga nikelg'ning kushilishi ularning korroziyabardoshligini oshiradi.

XROMLI ZANGLAMAS PULATLAR.

Bu pulatlarda xrom mikdori 12,5% dan kup. Uglerod mikdori iloji boriga kam bulishi kerak; chunki kotishmaning zanglamaslik kobiliyati bir fazali strukturada turgun buladi. Uglerodning kupayishi karbidlar xosil bulishga olib keladi; bu yesa strukturaning birxil yemaslikka du_ar kiladi, bu uz navbatida pulatning korroziyabardoshligini pasaytiradi. Lekin, uglerod tablash samardorligini kattik oshiradi, pulat kattikligiortadi.

Xromli pulatlarni toblab, bushatilsa uning mexanik xossalari yeng yukori buladi. Tablab yuza silliklansav (polirovka) korroziyabardoshligi yeng yukori buladi.

1X13; 2X13 pulatlari yaxshi payvandlanadi. bu yerda $S = 0,12; 0,2\%$, $Cr = 13\%$.

1X13 dan aviatsiya priborlari detallari, bolt, vint, gayka, kichkina tishli gildiraklar yasaladi.

2X13 dan karbyurator ninalari, vtulkalar, avia-pribor tishli gildiraklar yasaladi.

3X13 – yukori xaroratda (350°S) ishlaydigan prujinalar.

4X13 – kattiklikni toblab kiladigan kuch ostida ishkalanishga yaxshi chidashi kerak detallar yasaladi: shtutserlar, podshipniklar va x.k.

XROM – NIKELLI ZANGLAMAS PULATLAR.

Bu pulatlarga xrom, nikeldan tashkari Mn, Ti, Nb, Mo, Al kerak mikdorda kushiladi. plastik xossalari oshadi, korroziyabardoshligi va kislotadagi karshiligi zanglamaslikka ortadi.

X18N9 – sovuk xolda prokatlangan list, lenta sifatida samoletlar uchun ishlatiladi, payvandlanadi.

X18N9T – issik gaz chikadigan detallar/u: aviadvigatel patrubkalari, «vqxlopnoy kollektor» va x.k.

2X13N4G9 – kurollar uchun, 450°S da ishlaydi. S – 0,2%.

X18N12M2 – turbokompressorning issik gazda ishlaydigan detallari uchun S – 0,1%.

OX18N12B – bu yerda $S < 0,08\%$. aviadvigatel detallari/u, 850°S dan pastda ishlaydigan. Bu pulatlar azot kislotasida xam ishlaydi.

X15N9Yu, X17N5M3 – obshivkalar uchun 500°S gacha ishlaydigan.

OLOVBARDOSH VA ISSIK BARDOSH PULATLAR.

Yukori temperaturalarda uzok vakt kiziganda uncha oksidlanmaydigan – kuyundi xosil kilmaydigan pulatlar olovbardosh pulatlar deb ataladi. Pulatning yukori temperaturalarda mexanik nagruzkalarga bardosh berish xususiyati issikbardoshligi deb ataladi: plastik deformatsiyaga karshiligi va buzilmasligi.

Olovbardoshlik – bu yukori xaroratda zanglamaslik desa xam buladi. Buni oshirish uchun Cr, Al va Si bilan legirlanadi.

Uchish apparatlari dvigatellari detallari 700-1000°S da ishlaydi: gaz turbinasi lopatkalari, turbina disklari, yonish kamerasi, trubalar.

Yukoridagi pulatlar temir, nikelg' yoki kobalg't asosida olinadi.

Temir asosidagi olovbardosh pulatlar: kuyundi xosil kilmaydigan. X23N18 ($S < 0,18\%$), XN38VT, YeP126; 22-11-2,5

Temir asosidagi issikbardosh pulatlar: 4X15N7G7F2MS ($S = 0,4\%$); 4X12N8G8MFB; 1X12N2VMF, VJL10.

Nikelg' va kobalg't asosidagilarning olovbardoshligi va issikbardoshligi ancha yukori.

Nikelg' va kobalg't asosidagi olovbardoshlar pulatlar: XN78T, X20N80T, XN75MBTYu, XN60V.

Nikelg' va kobalg't asosidagi issikbardosh pulatlar: XN70VMTYu, YeI929, JS6-KP (kobalg't 6%), JS3, LK4 (kobalg't $< 5,8\%$)

Eyilishga chidamli pulat: G13-: $S = 1,0-1,3\%$, $M_n = 13-14\%$, $Si = 0,5\%$; $0,03\%S$.

TAYaNCH SUZLAR VA IBORALAR.

Xrom – nikelli zanglamas pulatlar. Korroziyabardosh pulatlar deb xavo sharoitida, darg'yo va dengiz suvlarida, tuzlar eritmasida, ishkori va bahzi kislotalarda uy xamda yukori xaroratlarda korroziyaga karshilik kursataoladigan pulatlarga aytiladi. Bu pulatlarda xrom mikdori 12,5% dan kup. Xromli pulatlar. Olovbardosh pulatlar. Issik bardosh pulatlar.

TEKSHIRUV SAVOLLARI.

Gliftoliyli smola (alkidli) uch atomli spirtni-glitserinni NO-SN₂-SNON-SN₂-ON va ftalieli angidrinini polikondensatsiya kilib oladi.



KUKUN TULDIRGICHLI PLASTMASSALAR.

Plastmassalar fenolformaldegid, kremniy organik va boshka smolalar asosida olinadi. Boshka komponentlari: plastifikatorlar, yogoch uni, yanchilgan kvarts, asbest, slyuda, grafit. Dstollar presslash usulida olinadi.

Press poroshoklar (kompozitsiyalar) izotropik, mexanik xossalarning yukori yemasligi, past zarbiy kovushkoklik va konikarli yelektrizolyatsiyaligi bilan xarakterli. Press-poroshok markasi xarf va rakamlaridan iborat. “K” xarfi kompozitsiya degani. Undan keyingi son boglovchi smola nomeri (markasi). Rakam yesa, mahlum tuldirgichga tugri keladi: 1-tsellyuloza, 2-yogoch uni, 3-slyuda uni, 4-plavikali shpat, 5-yanchilgan kvarts, 6-asbest. Masalan, marka K-220-21. Bu yerda 220-press-poroshok rezonli smola asosida tayyorlangan; tuldirgichlar: yogoch uni va tsellyuloza.

Press-poroshoklar vazifasiga karab 3 guruxga bulinadi:

a) Umumiy vazifalarga muljallangan kam yuklangan detallarni yasash uchun.

b) Yelektrotexnik detallar yasash uchun.

v) Suvga va issikka yukori darajada turgun detallar uchun: K-18-53;

K-18-42; K-214-42:

-yukori zarbiy mustaxkamlik detallari uchun: FKP-1, FKPM-10;

-yukori ximiyaviy turgunlik detallariga: K-17-36; K-18-81; K-17-81;

-zamburug-turgun (“gribostoykiy”): K-18-36.

Press-poroshokdan detallar tugri yoki kuyib presslash yuli bilan olinadi.

GAZ BILAN TULDIRILGAN PLASTMASSALAR.

Makrostrukturasiga karab **gaz bilan tuldirilgan plastmassalar** 2 gruxga bulinadi: **1-penoplastlar; 2-poroplastlar.**

Penoplastlarning asosi polimer bulib, yopik bir-biridan xolis yacheykalar tizimini xosil kiladi. Yacheykalar gaz bilan tuldirilgan.

Poroplastlarda yesa asos polimer yacheykalari orasidagi tusiklar kisman buzilgan va biri biri bilan tutashgan. Poroplastlar yelastik, xajmiy ogirligi $25-45 \text{ kg/m}^3$; Poroplastlar tarkibiga shunday moddalar kushiladiki, ular kizdirilganda kaynab-porlanib ketishi kerak yoki suv bilan yuvganda yuvilib chikib ketishi kerak. Poroplastlar blok tarzida, yuzalari plyonka bilan koplangan xolda chikariladi. Tovushni juda yaxshi yutadi-70-80%.

Penoplast-bikir material, kichik xajmiy ogirlikka ega-20-300 kg/m³. CHukmaydi, issiklikni utkazmaydi xisob. Issiklik utkazish koeffitsienti 0,003-0,007 Vt/(m*K).

Polistirol, polivinilxlorid, polietilen va boshkalar asosidagi termoplastik renelplastlar ularni kupirtirib yukori yelastik deformatsiya xolatida olinadi. Bu xolat oynalanish xaroratidan 10-20⁰S yukorida kizdirilganda buladi. Termoturgunlik past $t_{tur} < 60^0S$.

Govakli struktura smolalar tarkibiga gaz xosil kiluvchilar kushish bilan olinadi: poroforlar;

Eng kup tarkalgani va puxtasi-bu penopolistirol (PS) va penopolivinilxlorid (PXV), $t = +60^0S$ da ishlaydi. Fenolkauchukli (FK) penoplastlar $t = 120-160^0S$ da ishlaydi. Agar alyuminiy upasi kushilsa, FK-20-A-20 penoplasti uchun $t = 200-250^0S$. Penoplast K-40 uchun $t = 300^0S$.

Penoplastlar issik utkazmaydigan konstruksiyalarda kup ishlatiladi: samalyotda, xolodilniklarda, konteynerlarda va x.k. Konstruksiya ichki xajmlarini tuldirishda xam ishlatiladi. Bunda nisbiy mustaxkamlik, bikirlik, titrashga karshilik ortadi.

TAYaNCH SUZLAR VA IBORALAR.

Oddiy plastmassa. Murakkab plastmassa. Plastifikator. Kotiruvchi (amiplar) va katalizator. Termoplastik plastmassa. Termoreaktiv plastmassa. Plastmassalarning klassifikatsiyasi. Termoplastik plastmassa. Kutbli termoplast. Polietilen. Polistrol. Ftoroplast-4. Triflorxloretilen (ftoroplast-3). Polimer kutbli. Polimetilmetakrilat(organik oyna). Kumishlanish xodisasi. Butvarli plenka. Polivinilxlorid (PVX). Viniplast va plastik. Plastik.

Fenolformaldegid (bakelitli). Novolak. Rezol. Rezitol. Yeloksidli smola. Kremniy organikli smola (silikon). Kukun tuldirgichli plastmassa. Gaz bilan tuldirilgan plastmassa. Poliefirli smola. Gliftoliyli smola (alkidli). Gaz bilan tuldirilgan plastmassa. Penoplast. Poroplast.

TEKSHIRUV SAVOLLARI:

1. Plastmassa nima?
2. Plastmassalarning tarkibi.
3. Plastmassalarning xossalari.
4. Klassifikatsiyasi.
5. Plastmassalarning boglovchilariga va tuldiruvchilariga karab misollar keltiring.
6. Termoreaktiv plastmassalar kanday xususiyatga ega.

7. Smolalarning turlarini sanab ifodalab bering.
8. Poroshok-kukuni bilan tuldirilgan plastmassalar; ularning turlari, xossalari.
9. Gaz bilan tuldirilgan plastmassalar; turlari, xossalari, ishlatilish joyi.
10. Poroshok-kukun tuldirilgan plastmassalarni markalash. K-220-21. Xarf va rakamlar nimalarni bildiradi.


15-mavzu. Dielektriklar, yarim o'tkazgichlar va o'tkazgichlar. Elektr tokini o'tkazuvchi materiallar. Metallardan yasalgan o'tkazgichlar. O'ta o'tkazgichlar. Yuqori elektro qarshilikka ega qotishmalar. Kontakt materiallar. Uzuqchi kontaktlar uchun materiallar

Reja

1. Dielektriklar xaqida umumiy mahlumotlar
2. Elektr toki o'tkazuvchi materiallar
3. Yarim o'tkazgichlar.

1. Dielektriklar

Dielektrik moddalar deb shunday moddalarga aytiladiki, bularda valentli zona o'tkazish zonasida keng man etilgan energiya bilan ajratilgan. Dielektriklar qattiq: (keramika, polimerlar, shisha); suyuq: (benzol, toluol, vodorod, kislorod, argon) xolatda bo'ladi. Bularda erkin elektronlar yo'q, bog'liqlik valentli yoki kovalentli. Dielektriklar-izolyatorlar tok o'tkazmaydilar: nisbiy elektroqarshilik $\epsilon = 10^{12} - 10^{20}$ om m. Dielektriklarning xarakterli xususiyati ularning qutblanishidir. (Elektr zaryadlar siljiydi).



Dielektriklarning kristallik tuzilishi

Kondensator qoplamalari oralig'idagi bo'shliq bo'lganda sig'imi S_0 belgilaymiz. Kondensator qoplamalari oralig'ida dielektrik bo'lgandagi yig'indisi

$$S = \epsilon \cdot S_0$$

ϵ -dielektrik doimiy, kondensator qoplamalari oralig'ida bo'shliq o'rnida biror dielektrik bo'lganda, kondensator sig'imining necha marta ortishini ko'rsatadi.


Xavo uchun $\epsilon = 1$, oltingugurt $\epsilon = 4$, mum $\epsilon = 7,8$, parafin $\epsilon = 2,1$; shisha $\epsilon = 7$, chinki $\epsilon = 6,3$; ebonit $\epsilon = 2,5$; keromika $\epsilon = 20$, suvlar uchun $\epsilon = 81$.

Qutblanishning asosiy xususiyati shundan iboratki, bir-biriga bog'liq elektrik zaryadlar maydon ta'sirida suriladilar-siljiydilar. Siljigan zaryadlar o'zlarining xususiy ichki maydonlarini xosil qiladilar, bu maydon yo'nalishi tashqi maydon yo'nalishiga teskari bo'ladi. Qutblanish o'lchami-dielektrik doimiylikdir.

Qattiq dielektrlarda qutblanish xar-xil bo'ladi, lekin xammasining yig'indisi ϵ ning kattaligini-qiyamatini ifodalaydi. Kondensatorli dielektrlarda ϵ katta maydonda o'zgaradi. $\epsilon = (12-15) \cdot 10^0$.

Qutblanishning eng asosiy turlari: elektronli, ionli, dipol-relaksatsiyali va o'z-o'zidan ("spontaynaya").

Elektronli qutblanish atomlarning elektron qobiqlarining deformatsiyasini vujudga keltiradi.




Elektronli, ionli kutblanish sxemasi

Elektronlar bir zumda suriladilar. Qutblanish vaqti juda kam $t = 10^{-15}$ s. CHastotaga bog'liq emas.

Ionli qutblanish qoplamalarining elastik surilishi xisobiga bo'ladi. Surilish masofasi ionlar orasidagi masofadan kam bo'ladi. Manfiy ionlar musbat elektrod tomonga, musbat ionlar manfiy elektrod tomonga suriladi. Ionli qutblanish davri juda kam $t = 10^{-13}$ s.

Dipol-relaksatsionli qutblanish qutbli dielektriklarda namoyon bo'ladi.



Dipol-relaksatsionli qutblanish

Dipollarning burilishi ϵ_e ni yaxshigina o'zgartiradi. Qutblanmagan dielektriklarda ϵ_e ning qiymati 2 dan ozgina ortiq. Qutblanganlarda u bir necha bor katta. Dipollarning maydon tahsirida burilishi va ϵ_e olib tashlangandan so'ng orqaga qaytishi uchun molekulyar kuchni yengishi kerak. SHuning uchun bunga vaqt kerak, yahni yuqoridagi qutblanish sekinroq o'tadi. Qizdirilsa, tezlashadi, chunki molekulyar kuchlar kamayadi.

O'z-o'zidan qutblanish faqat bitta dielektrikda- segnetoelektriklarda bo'ladi. Buni Kyuri nuqtasigacha sovitilganda o'z-o'zidan qutblanadi.

Dielektriklarning-izolyatorlarning elektrik qarshiligi yuqori $>10^{12}\Omega \cdot m$. Bu qizdirilganda kamayadi.

Dielektriklarning elektrik mustaxkamligi teshib o'tishiga qarshilik bilan o'lchanashadi. Teshib o'tish-bu qattiq dielektrikni maydon tahsirida tuzatib bo'lmaydigan (neobratimqy) buzilishiga va izolyatorlik xossasini yo'qotishga aytiladi.

Elektrik mustaxkamlik teshish kuchlanishligi $\epsilon_{\text{teshish}}$ deb, tok quvvati V_{teshish} ni dielektrik qalinligiga nisbatidir:

$$\epsilon_t = V_T / \delta$$

Teshib o'tish 3xil bo'ladi: elektrik, issiqlik va elektroximik.

Elektrik teshib o'tish katta xajmdagi elektronlar tulgunligining ionlashishi natijasida ro'y beradi. Bu katta kuchlanish ($E_1 > 1000 \text{ MV/m}$) tahsirida bir zumda ($t = 10^{-7} - 10^{-8} \text{ s}$) o'tadi. Odatda teshish tok quvvatini o'lchaganda yoki uning katta sakrashida bo'ladi.

Issiqlik teshish maydoni va issiqlikning birgalikdagi tahsiri ostida bo'ladi. SHuning uchun kontakti sovitib turish kerak.

Elektroximik teshish elektr maydonining uzoq tahsiri ostida dielektrikning strukturasi o'zgarishi va ϵ_T ning pasayishi natijasida bo'ladi.

Ximiyaviy tarkibiga qarab dielektriklar 2 turga bo'linadi:

1. Organik (polimerlar, rezina, shoyi)
2. Organik emas (slyuda, keramika, shisha sitollar)

Elektrik xususiyatlariga qarab 2xil: past chastotali (elektrotexnik), yuqori chastotali (radiotexnik).

Dielektriklarning xal qiluvchi xususiyati-bu issiqqa bardoshligi: o'z xususiyatlarini uzoq vaqt qizdirilganda xam saqlab qolish. Issiqqa bardoshlik qobiliyati darajasiga qarab, dielektriklar 7 sinfga bo'linadi: U, A, Ye, V, F, N, S. "U" eng pasi 90°S dan past bo'lishi kerak. Eng yuqorisi "S" guruxi: 180°S va undan yuqori xaroratni ushlaydi: slyuda, keramika, shisha, sitollar.

Dielektriklarning xossalari nam o'tkazishlik ("gigroskopichnostg") katta tahsir ko'rsatadi. Dielektriklarda tok o'tkazuvchi plyonkaning va qatlamning xosil bo'lishi izolyatorlik qobiliyatiga salbiy tahsir qiladi, xatto teshib o'tishi xam mumkin. Suv molekulasiining diametri $d=2,5 \cdot 10^{-10}$ m-juda kichkina, shuning uchun suv pari xamma yoqqa kirib ketaveradi. Eng gigroskopik materiallar zich va g'ovaksiz materiallar suv parlarini o'tkazmaydi, bularga sitaplar, shisha, ziya keramika, epoksidli plastmassa, qutbsiz polimerlar kiradi.

Dielektriklarni tanlashda ularning mustaxkamligi va mexanik xossalari xam ehtiborga olinadi. Keramika, shisha, sitallar-ancha mustaxkam dielektriklar, lekin mo'rt, ularning egilishga mustaxkamligi

$\delta_{egil}=(30-300)-500\text{Mpa}$.

Struktura va xossalarining turg'unligi dielektriklarning ishlatish-eksplutatsiya qilish muddatini belgilaydi, shishaga 'bO va BaO qo'shilishi uning elektroximik teshilishiga qarshiligini oshiradi. Ko'pchilik plastmassalar razryad tahsirida kuyib ko'mirlashadi (qotadi) va o'zining izolyatsion qobiliyatini yo'qotadi.

Polistrop, organik shisha, floroplast va kremniy organik plastiklarda bu kamchilik yo'q.

Dielektriklar orasida keramik materiallar (ayniqsa, segnetokeramika) aloxida axamiyatga ega. Bular eskirmaydi va qizdirishga nisbatan turg'un.

Keramika izolyatorlarni, kolodkalarini, platlarni, g'altaklarni yasashda ishlatiladi.

Past chastotalarda elektrofarafor ishlatiladi: arzon, yaxshi elektrik xossalari, lekin mustaxkamligi past va 200°S dan yuqorida katta "yutqazishi" - "poteri".

Yuqori chastotalarda ishlaydigan detallar asosan steoit nomli materiallardan yasaladi. Buning tarkibida zararli qo'shimchalar (primaslar) yo'q va 100°S gacha o'z xossalarini yaxshi ushlab tura oladi: yaxshi presslanganda, kuydirilganda-pishirilganda (objig) kirishishi 1-2%. Zich

va g'ovak stukturali xamda aniq o'lchamli detallar uchun ishlatiladi. Steotit yaxshi qirqiladi. Kamchiligi: xarorat tez o'zgarganda darz ketadi.

Yuqori chastotali kondensatorlarni yasashda ulg'trafarfor, steotit, stannatli, keramika ishlatiladi. Eng yaxshi xossali keramika TiO_2 asosida bo'ladi. Bunday keramika 2 xil bo'ladi:

1. Tikondalar: T-60, T-80, T-150.
2. Termokondalar: T-20, T-40 raqamlar "E" ning miqdorini bildiradi.

Tikondalar asosan termokompensatsilovchi kondensatorlar uchun ishlatiladi. Termokondalar yuqori turg'unlikdagi kondensatorlar uchun ishlatiladi.

Past chastotali kondensatorlar uchun eng yaxshi material-segnetokeramika, chunki uning "E" si ancha katta.

Pg'ezoelektriklar-bular shunday materialki, mexanik kuchlanish tahsirida ular qutblanadilar. Phezokeramik materiallar – bular bariy titanati (TBS va TBKS) asosidagi qattiq eritma. Bariy niobati (NBS) qalay titanati (NTS), asoslarida xam bo'lishi mumkin.

2. Elektr toki o'tkazuvchi materiallar.

Materiallar elektr xossalari bo'yicha 3turga bo'linadilar: o'tkazuvchilar, yarim o'tkazgichlar, dielektriklar.

O'tkazgichlarning nisbiy elektrik qarshiligi 10^{-8} - 10^{-5} $\text{Om}\cdot\text{m}$ bo'ladi va xarorat ko'tarilishi bilan u xam ortadi.

Yarimo'tkazgichlarniki 10^{-5} - 10^{-8} $\text{Om}\cdot\text{m}$ bo'ladi va xarorat ko'tarilishi bilan u kamayadi. Bular tokni to'g'rilash, elektr signallarini ko'paytirish, xar-xil turdagi energiyalarni elektr energiyasiga aylantirish uchun ishlatiladi.

Dielektriklarning nisbiy elektr qarshiligi 10^{-8} - 10^{-16} $\text{Om}\cdot\text{m}$ ga teng. Bular izolyator sifatida ishlatiladi.



Metall va ularning qotishmalaridan yasalgan o'tkazgichlar. Texnikada, ayniksa aviatsiyada tokni yuqori darajada o'tkazadigan yuqori o'tkazgich metallari va qotishmalari keng qo'llaniladi: oltin, kumush, mis, bronza, latun va x.k. Bular yuqori elektr o'tkazuvchanlik; etarli mustaxkamlik, plastiklik atmosfera sharoitida korroziyabardoshlik qobiliyatlariga ega.

Metallar qancha toza bo'lsa (qo'shimchalar-primelar va nuqsonlardan) shuncha ularning o'tkazuvchanligi yuqori bo'ladi.

Oksidlanmaydigan o'tkazgichlar, yuqori va o'ta yuqori chastotali asboblari-priborlarning kontaktlari va pechatli mikrosxemalar uchun kumush ishlatiladi. Kumush xavoda oksidlanmaydi. Lozim bo'lganda mis,latun va tok o'tkazmaydigan materiallar (keramika,oyna,kvarts,polimer)ustiga maxsus usul bilan kumush qoplama beriladi. Bahzi xollarda kumush oltin bilan almashtiriladi.

Mis amaliyotda juda keng ishlatiladi. U yuqori o'tkazish qobiliyatiga ega, mexanik xossalari yaxshi,arzon. Induktsiya usulida vakuumda olingan (kislorodsiz) mis yuqori o'tkazgichlik va plastiklik qobiliyatiga ega. "Nagartovka" qilingan mis-MT yuqori puxtalikka ega.

Yumshoq mis-MO,M1 kabellarning ichaklarini, "obmotka"-o'rama simlarni yasash uchun ishlatiladi.

Kislorodsiz mis-MOO ($02 < 0,02\%$) esa elektrovakuum asboblarda, SVCH-asbobida,mis "folg'gasi" yasash uchun ishlatiladi.

M2,M3,M4 markali simlar asosan qotishma olish uchun ishlatiladi. Mexanik xossalari yuqori bo'lishligi talab qilingan maxsulotlar uchun latunlar,kadmiyli va berilliyli bronzalar ishlatiladi. Kadmiyli bronzadan "trolley"lar,sirpanuvchi kontaktlar, membranalar yasaladi. Latunlardan xar-xil tok o'tkazuvchanli detallar yasaladi.

Alyuminiy yuqori elektr o'tkazuvchanligi,plastikligi va kam zichligi bilan xarakterlanadi.O'ta toza alyuminiy-A999,A995 va yuqori tozlikdagi alyuminiy A99,A95 ishlab chiqariladi. Bulardan elektrolitik kondensatorlar,kabellarning ximoya qobiqlari yasaladi. Texnikaviy alyuminiydan-A85,A7 kabellar va tok o'tkazuvchi shinalar yasaladi. Elektr o'zatuvchi liniyalar uchun alyumin qotishmasi-Al-Mg-Si ishlatiladi,yuqori puxtalikka ega. Ko'pchilik xollarda bilitollar ishlatiladi,tok o'tkazish simlari,o'zagi po'latdan qobig'i esa mis yoki alyuminiydan. Qobiq galg'vanik usulda yoki plakirovka usulida olinadi.

Temirning o'tkazuvchanligi ancha past. Lekin mustaxkam ($\sigma = 300 + 700 \text{ MPa}$). Bu uni oqlaydi. Asosan kam uglerodli ($S = 0,1 - 0,15\%$)va oddiy sifatli po'latlar (St0,St1,.....St6) ishlatiladi. Bulardan tok shinalari,tramvay,metro temir yo'llari (elektropoezd\u) relg'slari yasaladi.


Ko'rsatgichlar	Ag	Au	Cu	Al
Zichlik,kg/m ³	10500	19300	8900	2700
Erish xarorati,°S	960	1063	1084	658
elektr qarshilikning xaroratli	3,6	0,4	4,5	4,3

koefitsenti, $\alpha \cdot 10^3 \text{ } ^\circ\text{C}^{-1}$				
Nisbiy elektroqarshilik, $r, \text{mkOm} \cdot \text{m}$	0,016	0,024	0,018	0,027

Qo'shimchalarning borligi tok o'tkazuvchanlikni ancha pasaytiradi.

Masalan misning o'tkazuvchanligini kremniy va marganetsning ozgina miqdori xam ancha pasaytiradi. Puxtalanish xam (naklep) o'tkazuvchanlikni ancha pasaytiradi: masalan: shtamplash, kiryalash usullarida olingan maxsulotlar.

O'ta o'tkazgichlar (sverxprovodniki) Bahzi metallar (30 xil elementlar) va qotishmalar (10000 xil) absalyut nolg' xaroratiga yaqin xaroratda o'ta o'tkazgich xolatiga o'tadilar. Bunda nisbiy elektroqarshilik yo'q xisobida bo'ladi: $r = 10^{-25} \text{Om} \cdot \text{m}$. (O'tkazgichlarda eng kam qarshilik $r = 10^{-15} \text{Om} \cdot \text{m}$)



Xaroratni o'ta o'tkazgichliligiga tahsiri

Materialning o'ta o'tkazgich xolatiga uning xaroratiga (T_{kr}), fizik xossalariga, materialning tozaligiga, kristallik panjarasining nuqsonlik darajasiga bog'liq.


Mahlum kuchlanishdagi magnit maydoni (N_{kr}) tahsirida o'ta o'tkazishlik yo'qoladi. Bunda magnit maydonini tashqi manбайдan xam, o'ta o'tkazgichdan o'tayotgan elektr toki vositasida xam barpo qilish mumkin.

Eng ko'p tarqalgan o'ta o'tkazgich qotishmalariga quyidagilar kiradi: Nb-Zr; Nb-Ti; V-Ti; Ta-Ti. Markalanishi: 65BT va 35BT (gost 10994-74). 65BT da 22-26% Ti, 63-68% Nb va 8,5-11,5% Zr bor. $T_{kr} = 9,7 \text{K} (-263,3^\circ\text{S})$. 35BT da 60-64% Ti, 33,5-36,5% Nb, 1,7-4,3% Zr bor.

4. Yarimo'tkazgichlar.

Yarimo'tkazgich materiallarga nisbiy qarshiligi $r = 10^{-3} - 10^{-10} \text{Om} \cdot \text{sm}$ bo'lgan materiallar kiradi. Bunga Mendeleev davriy sistemasidagi 12 element kiradi: bor, uglerod (olimo), kremniy, germaniy, qo'rg'oshin (Sn_0), fosg'for, mqshg'yak, surg'ma, oltingugurt, selen, tellur, yod. Bundan tashqari birqancha ximiyaviy birikmalar xam kiradi. Eng ko'p tarqalgan germaniy (Ge) va kremniy (Si).

Yarimo'tkazgichlarda tokni paydo bo'lishi uchun valent zonasidagi elektronlarning bir qismi tok o'tkazish zonasiga o'tib elektr zaryadini tashuvchisiga aylangan bo'ladi.





Turli xil soxalarida foydalaniladigan yarimo'tkazgichlar

Elektronlar bir zonadan ikkinchisiga o'tish uchun ruxsat etilmagan-man etilgan energiya zonasidan o'tishi kerak

Buning uchun ma'lum energiya kerak. Bu tashqi energiya yorug'lik yoki issiqlik energiyasi bo'lishi mumkin. Qizdirilganda elektr tokini tashuvchilar "konsentratsiya"si ko'payadi va yarimo'tkazgichning elektr qarshiligi kamayadi. Wo qancha ko'p-keng katta bo'lsa,shuncha ko'p qizdirish kerak.

O'tkazuvchanlikka tok tashuvchilarning xarakatchanligi xam tahsir qiladi. Kristallik panjaraning nuqsonlari buni pasaytiradi(demak, o'tkazuvchanlikni xam). Xuddi shunday tahsir qiladi tashuvchilarning "xayot davri" xam.



SHuning uchun,kristallik panjaralari nuqsonsiz yarim o'tkazgichlar-monokristallar ishlatiladi. Yuqori sifatli asboblari ("pribor")uchun germaniy va kremniy monokristallaridan yasaladi.

Toza yarimo'tkazgichlardan tashqari murakkab yarimo'tkazgich birikmalar xam ishlatiladi. Mendeleev sistemasidagi A^4V^4 ,uchinchi va beshinchi A^3V^5 va A^2V^4

A^4V^4 tipdagi birikma vakili SiC

A^3V^5 vakili ZnSb va GaAs(galiy arsenidi)

A^2V^4 bular sug'fidlar (ZnSe),oksidlar(Cu_2O).

O'Z-O'ZINI TEKSHIRUV SAVOLLARI:

1. Qanday qotishmaga elektrotexnik po'lat deyiladi?
2. E13-Xarf va rakamlar nimani belgilaydi?
3. Qanday metallga dielektrik deyiladi?

4. Qattiq va yumshoq magnitli metallarni bir-biridan farqi nimada?
5. Qanday materiallarga magnitli materiallar deyiladi?
6. Misollar bilan izoxlang?
7. Yarimo'tkazgichlarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

16-mavzu. Magnitli materiallar. Diomagnitlar, paramagnitlar, ferromagnitlar. Magnito–yumshoq va magnito–qattiq materiallar. Ularning nazari asoslari. Metall va nometallarning optik xossalari. Elektro–magnit nurlanish. Nur sinishi, rang. Lyuminassitsiya, lazerlar.

REJA

1. **Diomagnetiklar.**
2. **Paramagnetiklar.**
3. **Ferromagnetiklar.**
4. **Magnito–yumshoq materiallar.**
5. **Magnito-qattiq materiallar.**

1. Diomagnetiklar.

Diomagnetik materiallar deb, atomlari, ionlari yoki molekulalari tashqi magnit maydoni yo'qligida natijaviy magnit maydoni yo'q materiallarga aytiladi. Bularda faqat tashqi magnit maydoni bilan berilgan magnit momenti bo'ladi.

Diomagnetiklar uchun harakterlisi shundaki, magnitlanganlik vektori tashqi magnitlovchi maydon vektoriga qarama-qarshi.

Diamagnetik materiallarga quyidagilar kiradi: barcha inert gazlar (argon, geliy va h.k) ; vodorod, ammiak va h.k; bir qator metallar (Cu, Ag, Au, Zn, Pb, Hg) ; metalloidlari (P, S, Si) ; noorganik moddalar (shisha, mromor, suv) ; organik moddalar (mum, neft). Bahzi bir diomagnetiklarni magnitlanishlik – magnit qabul qilishlik ("o'tkazuvchanlik") μ va magnit seziluvchanligi K_m quyidagi jadvalda berilgan.

Bahzi diomagnetik va paramagnetiklarning magnitlanishlik μ va magnit seziluvchanligi K_m qiymatlari.

Bahzi – bir diomagnetik va paramagnetiklar uchun magnit qabul qilishlik va k_m va magnit o'tishlik μ qiymatlari

Moddalar	k_m	$\mu = 1 + k_m$
diomagnetiklar		


Vismut	$-1,7 \cdot 10^{-4}$	0,99983
Suv	$-0,88 \cdot 10^{-5}$	0,9999912
Mis	$-0,94 \cdot 10^{-5}$	0,9999906
Kremniy	$-0,3 \cdot 10^{-5}$	0,999997
Vodorod	$-0,208 \cdot 10^{-8}$	0,9999999979
paromagnetiklar		
SaO	$5,8 \cdot 10^{-3}$	1,0058
Platina	$2,93 \cdot 10^{-4}$	1,000293
Alyuminiy	$2,14 \cdot 10^{-4}$	1,000214
Xavo	$3,65 \cdot 10^{-7}$	1,000000365

2. Paromagnetiklar.

Paromagnetizm atomlari (ionlari) toq sonli elektronlari bo'lgan materiallarda namoyon bo'ladi.

Paromagnetiklarning atomlari (ionlari yoki molekulari) tashqi magnit maydoni bo'lmaganda ham shaxsiy magnit momentiga ega bo'ladi. Atomlarni (ionlarni yoki molekularni) magnit momentlari orasidan o'zaro tahsiri nolga teng yoki juda kam, shuning uchun ularni magnit momentlari tartibsiz joylashgan va materialni natijaviy magnitlangani (μ) nolga teng.

Tashqaridan magnit maydoni qo'yilganda paromagnetik atomlarning magnit momentlari tashqi magnit maydoni yo'nalishi bo'yicha joylashadi va uni kuchaytiradi, yahni musbat magnitlanish namoyon bo'ladi ($K_m > 0$) ; kuchli magnit kuchlanishi erida cho'ziladilar. K_m ning absolyut qiymati juda kichik ($|K_m| = 10^{-3} - 10^{-4}$) va magnit maydoni kuchlanishiga bog'liq emas, lekin, haroratga bog'liq. Magnit qabul qiluvchanlik birdan biroz kattaroq ($\mu > 1$). da bahzi paromagnetiklarning K_m va μ qiymatlari berilgan.



Atomlar magnit momentlarini tashqi magnit maydoni yo'qligidagi sxematik ko'rinishi: a- paromagnetiklarda; b- ferromagnetiklarda; v- antiferromagnetiklarda; g- ferrimagnetiklarda.

Paromagnetizm ishqor metallarda (Na, K); o'tkazuvchi metallarda (Ti, V, Cr, Mn va h.k) namoyon bo'ladi; qaysilarki, oxirigacha qurilmagan 3d- elektron qavatiga ega; siyrak elementlar (lantanoidlar) da tseriy Se dan to lyutetsilgacha Lu.

3. Ferromagnetiklar.

Ferromagnetizm paromagnetizmni xususiy holati. Ferromagnetiklarda paromagnetiklardagi kabi atom (ion) momentlari elektronlarning spinli magnit momentlari bilan kompensirovat qilinmagan. Lekin, ferromagnetiklarning atomlar momenti tartibli joylashgan, bir-biriga parallel va magnit domenlarini hosil qilishgan.

Magnit domeni – ferromagnetikning elementar hajmidir, holati to'yingan magnit. Domenli struktura tashqi magnit maydoni yo'qligida hosil bo'ladi; mustaqil o'z-o'zidan magnitlanish sodir bo'ladi: harorati Kyuri nuqtasidan biroz pastroqda: bu harorat toza temir uchun $T_k = 768^\circ\text{S}$; nikel uchun $T_k = 358^\circ\text{S}$; kobalt uchun $T_k = 1131^\circ\text{S}$.

Ferromagnetiklarning xarakterli xususiyati ularni domenli strukturasidir; bu o'z navbatida magnitli xossalarni spetsifikatsiyasini shartlaydi: yahni magnitli to'yinish, gisterezis, magnitostriktsiya.

Ferromagnetiklar kuchsiz magnit maydonida ham oson magnitlanadilar.

4. Magnito–yumshoq materiallar.

Magnito–yumshoq materiallarga qo'yilgan talablar ko'proq ularni ishlatish, qo'llash sohasi bilan ifodalanadi. Bunday materiallarga quyidagi xossalar harakterli: koertsitiv kuchning kamligi, yuqori magnit o'tkazuvchanlik, kuchsiz maydonlarda ham to'yinish induktsiyasining yuqoriligi. O'zgaruvchan magnit maydonlarida ishlovchi materiallar yuqori elektr qarshilikka ega bo'lishi mumkin, "vixrevoy" tokka sarflashni kamaytirio' uchun.

elektro– va radiotexnikada magnito–yumshoq materiallar keng qo'llaniladi: magnitli maxsulot sifatida har hil sterjenlar, magnit o'tkazgichlar, qutibli uchliklar, telefonlar membronalari, drossellar, transformatorlar, integral sxemalarda va h.k.

Past chastotali magnit materiallarga nisbiy qarshiliklari 10^{-7} Om*m. bo'lganlari kiradi; yuqori chastotalilarga nisbiy qarshiliklari $\rho=10^{-10}$ Om*m. kiradi. Past chastotali magnit materiallari: temir, legirlaniagan po'lat, kremniyli elektrotexnik po'lat, permalloy. Yuqori chastotali magnito–yumshoq materiallar: magnitodielektriklar, ferritlar, yupqa listli ($h=25-30$ mkm) va sovuq prokatlangan rulonli elektrotexnik po'latlar, permalloy (qalinligi 2-3 mkm gacha).

Magnito-qattiq materiallarni klassifikatsiyasi-turlari. Tarkibi va olinish usuliga qarab magnito-qattiq materiallar quyidagi gruppalariga bo'linadi.1) ligerlangan po'latlar martensit xolatiga toblangan; 2) yuqori koertsitivli qotishmalar; 3) metallokeramik va metalloplastik magnit; 4) magnito-qattiq ferritlar; 5) siyrak elementalar orasidagi qotishmalar; 6) informatsiya tashuvchi magnitlar uchun qotishmalar.

5. Magnito-qattiq materiallar.

Magnito-qattiq materiallarning asosiy xarakteristikalariga ularning koertsitiv kuchi N_e ; qoldiq induktsiya V , eng katta nisbiy magnit energiyasi W_m , (material tomonidan bo'shliqqa berilayotgan-uzatilayotgan)

Magnito-qattiq materiallarning doimiy koertsitiv kuchi magnito-yumshoqlarnikiga nisbatan 1-4 o'n marta ko'proq, lekin magnitli o'tkazuvchanligi kamroq.

Magnito-qattiq materiallar doimiy magnitlarni yasash uchun ishlatiladi-bular doimiy magnit maydoni manbahlaridir, qaysilarki xar xil apparatlarda, elektromagnit yozuvchi qurilmalarda, televizorni fokuslovchi qurilmalarida, mikrofonlarda, elektr o'lchovchi moslamalarda va x.k.larda ishlatiladi.

Dimiy magnitni magnit potogi-oqimi vaqt o'tishi bilan kamayadi; buni-xodisani magnitni eskirishi deb ataladi. Eskirish ikki xil bo'ladi: qaytadigan va qaytmaydigan.

Qaytadigan eskirish zarb berish tahsirida, siltash, xaroratni keskin-tebranishi, tashqi doimiy maydonni tahsiri natijasida xosil bo'ladi. Bu V ni 1-3%ga kamayishiga olib keladi. Eskirgan magnit xossalarini tiklash mumkin. Buning uchun qayta magnitlash kerak.

Qaytmaydigan eskirish. Bu vaqt o'tishi bilan material strukturasini o'zgarishi bilan bog'langan. Qayta magnitlanganda o'zgarish (magnit xossasi) tiklanmaydi.

Magnito-qattiq materiallarni yuqori koertsitiv kuchga ega bo'lishi uchun kristallik panjarada ligirlash yo'li bilan ko'p sonli ichki kuchlanishlarni xosil qilish kerak, dislokatsiyalarni va boshqa nuqsonlarni xam. So'ngra termik ishlanadi. Eng yuqori Ne ni magnitli va magnit emas fazalar aralashmasidan tashkil topgan materiallarda bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Qiyin eriydigan metall deb kanday metallga aytiladi? Misol keltiring.
2. Sovuqqa chidamli material deb kanday materialga aytiladi? Misol keltiring.
3. Qanday materiallar radiatsiga chidamli deyiladi?
4. Qanday qotishmaga elektrotexnik po'lat deyiladi?
5. E13-Xarf va rakamlar nimani belgilaydi?
6. Qanday metallga dielektrik deyiladi?
7. Qattiq va yumshoq magnitli metallarni bir-biridan farqi nimada?
8. EX5K5 Qanday material va xarf va raqamlar nimani belgilaydi?

17-mavzu. Kompozitsion materiallar. Kompozitsion materiallar haqida umumiy ma'lumotlar. Ularni olish, tarkibi, tuzilishi, xossasi va ishlatilish sohasi.

REJA:

1. Kompozitsion materiallar tugrisida umumiy ma'lumotlar. Xozirgi zamon uchish apparatlarini ishlab chikarishda kompozitsion materiallarning tutgan urni.
2. Kompozitsion materiallarni yaratish printsiplari va asosiy turlari.
3. Alyuminiy matritsali kompozitsion materiallar.
4. Nikel matritsali kompozitsion materiallar.
5. Kompozitsion materiallarni tolalar bilan puxtalash.
6. Sinchlovchi materiallar. Turlari. Xossalari.
7. Metall asosidagi kompozitsion materiallar. Ularni olish asoslari.
8. Keramik kompozitsion materiallarning (KKM) asosiy turlari.

Kompozitsion materiallar anhanaviy konstruksion materiallarga nisbatan aloxida xossalarga ega. Bu narsa ijobiy xususiyatli materiallarni va konstruksiyalarni yaratishga olib keldi.

Kompozitsion materiallar ikki va undan ortik tashkil yetuvchilardan-komponentlardan tuzilgan murakkab material bulib, xar xil usullar bilan boglangan va uziga xos xossalari bor.

Birinchi kompozitsion material 1867 yilda patentlangan: xovli gul tuvaklari, sim va tsementdan yasalgan: bogbon frantsuz J.Mong'e. Kompozitsion materiallar uz xossaloriga karab mashinasozlikda keng kullanilinmokda va katta iktisodiy tejasga olib kelmokda masalan:

SSSR ning "Ruslan" samolyotida 5,5 t. ogirlikdagi konstruksion kompozitsion materiallardan yasalgan va 15 t. ogirlik iktisod kilingan.

Xozirgi zamon transport samolyotlari konstruksiyalarining 15-20%; xarbiy samolyotlarning 25-30%; xarbiy vertolyotlarning 45-55%; strategik raketalarining 75-80% kompozitsion materiallardan yasalgan.

Kompozitsion materiallarga kuyidagi xususiyatlar yigindisi xos:

- a) Komponentlarning tarkibi, formasi va taksimlanishi oldindan aniklangan;
- b) Ikki va undan ortik ximiyaviy xar xil materiallardan tarkib topgan va bir-birlari bilan ajralib turadilar;
- v) Kompozitsion materialning xossalari xar bir tashkil yetuvchining xossalari bilan aniklanadi;
- g) Kompozitsion materialning xossalari, tashkil yetuvchilarning xossalaridan fark kiladi;
- d) Kompozitsion material makromasshtab mikyosida birtanli, mikromasshtabda bir tanli yemas;
- e) Bu material tabiyatda uchramaydi va odamzodning ixtirosidir.

Geometrik kursatkichlariga karab tashkil yetuvchilar xar xil buladi. Butun xajm buyicha uzluksiz-tuxtovsiz tarkalgan komponent-**matritsa** deyiladi. Uzlukli, bulak-bulakli materiallar **sinchlovchi yoki puxtalovchi** tashkil yetuvchilar deb ataladi.

Matritsa materiali sifatida metall va uning kotishmalari; organik va noorganik polimerlar; keramika, uglerod va boshka materiallar ishlatiladi. Matritsa materiali xossalari kompozitsion

materialni olish texnologik jarayonini ifodalaydi. Uning zichligini, mustaxkamligini, ishlash xaroratini, charchab buzilishga karshiligini, tashki agressiv muxitga karshiligini ifodalaydi.

Sinchlovchi yoki puxtalovchilar matritsa buylab bir tekisda joylashadi. Bular yukori puxtalikka, kattiklikka, yelastiklik moduliga ega. Bu kursatkichlar matritsa kursatkichlarinikidan ancha yukori.

“Tuldirdigichlar” puxtalikni oshirib kolmay, kompozitsion materialning boshka xossalariga xam tahsir kiladi.

Tuldirdigichlarning geometriyasiga karab, ularni matritsada joylashishiga karab, kompozitsion materiallar kuyidagicha klassifikatsiya kilinadi.

Tuldirdigichlarning geometriyasiga karab:

1. **Nol-ulchamli tuldirdigichli:** bularning ulchamlari uch tomonlama ulchashda bir xil ulcham kursatgichiga ega;
2. **Bir-ulchamli tuldirdigichli:** ulchamlardan birining ulchamlari kolgan ikkitasinikidan juda katta;
3. **Ikki-ulchamli:** ikki ulchami kolgan bittasidan juda katta.

Tuldirdigichlarning joylashish sxemasiga karab kompozitsion materiallar uch guruxga bulinadi:

1. Tuldirdigichlarni bir ukda-chizigiy joylashishi bilan tuldirdigichlar tola, ip, intevid shaklidagi kristallar formasiga bulib, matritsada bir-biriga parallel buladi;
2. Ikki ukli-yuzali: bularda sinchlovli tuldirdigichlar tola firmasida, intevid kristallarning matollari formasida, matritsada falga formasida parallel tekisliklarda buladi;
3. Uch ukli-xajmiy: bunda sinchlovchi tuldirdigich xajm buyicha joylashgan; afzal yunalishi yuk.

Komponentlarning tabiatiga karab kompozitsion materiallar kuyidagi turt guruxga bulinadi:

1. Tarkibida metall yoki metall kotishmasi bor;
2. Tarkibida oksidlar, karbidlar, nitridlarning noorganik

birlashmalari borlari;

3. Tarkibida metall yemas yelemantli, uglerodli, borli va x.kli

komponent borli;

4. Komponentlari organik moddalar birlashmasidan (epoksidli,

poliefirli, fenolli va x.k. smolalar) tashkil topgan.

NOL-ULCHAMLI TULDIRGICHLI KOMPOZITSION MATERIALLAR.

Bu tipdagi kompozitsion materiallarda matritsa asosan metaldan va kotishmadan iborat. Metall asosidagi kompozitsiyalar bir tekis puxtalanadi, dispers zarrachalar bilan. Dispers zarrachalar:

a) Mikroskopik ($d=0,01-0,1$ mkm);

b) Mayda ($d=1-50$ mkm) buladi.

Xossalari **izotrop** buladi.

Dispers zarrachalar bilan sinchlangan kompozitsiyalar kupincha kukun metallurgiyasi usulida olinadi. Asosiy yetaplari:

1. Matritsa metali va puxtalovchini kukunlarini aralashmasini

olish (maxsus usullar bilan kukunlar olinadi. Sungra maxsus

mashinalarda aralashtiriladi).

2. Pulat matritsalarida kukunni presslash va ixcham zagatovkaga

aylantirish. Sungra uni termik ishlash-”spekoniye”

Presslash, deformatsiyalash va termik ishlash davrida maxsulot optimal, turgun dislakatsion strukturaga ega buladi.

ALYuMINIY MATRITSALI KOMPOZITSION MATERIALLAR (NOL-ULCHAMLI).

Samolyotsozlikda, umuman korxonalarda, alyuminiy asosidagi Al_2O_3 bilan puxtalangan kompozitsion materiallar urin oldi. Bular kukun metallurgiyasi usulida alyuminiy upasini-kukunini presslab termik ishlab olinadi (**SAP**). Upa zarrachasi “cheshuek” formasida bulib, kalinligi=1mk.m. Zarrachalar yuzasidagi oksid plenka kalinligi $t=0,01-0,1$ mkm.

SAP ning 20⁰S dagi mexanik xossalari.

Marka	Al ₂ O ₃ ; % xajmi	σ_v , MPa	$\sigma_{0,2}$ MPa	δ_1 , %	E, MPa
SAP-1	6-8	300	200	7-9	67
SAP-2	9-12	320	230	4	71
SAP-3	13-17	400	340	3	76
D20		420	300	11	69

NIKEL MATERIALI KOMPOZITSION MATERIALLAR (NOL-ULCHAMLI).

Bunday kompozitsion materialning puxtalovchi komponent zaxarli **toriy dioksidi** (ThO₂) yoki **gafniy dioksidi** (HfO₂) zarrachalaridir. Bu materiallar **VDU-1** va **VDU-2** deb belgilanadi. **VDU-3** kotishmasida matritsa vazifasini nikel-xromli kattik eritma (20%-xrom) bajaradi. Puxtalovchi zarracha-gafniy dioksidi.

Gafniy va toriy oksidlari kisishda yukori mikrokattiklikni va puxtalikni kursatadilar. Matritsa yesa maximum turgun. Toriy va gafniy oksidlarini xajmi 2-3%.

ThO₂ OKSIDINING MEXANIK XOSSALARI.

Mikrokattiklik,

MPa

Mustaxkamlik chegarasi, kisishdagi Mpa

	20 ⁰ S	400 ⁰ S	600 ⁰ S	800 ⁰ S	1000 ⁰ S
9690	1372	1078	588	490	352,8

HfO₂ oksidining mexanik xossalari yukoridagi ThO₂ nikidan kam fark kiladi.

Issikka bardoshligi oksid zarrachalarning soniga, ulchamlariga; matritsa dopolarining xam ulchamlariga, formasiga va kurulishiga boglik. Matritsaning bu dopolari bosim ostida va termik ishlash davrida xosil buladi.

VDU-1, VDU-2, VDU-3 larning issikka bardoshligi oddiy xaroratda nikel asosidagi issikbardosh pulatlarnikidan past. Lekin, xarorat kutarilishi bilan VDU larning issikka bardoshligi (shu xaroratdagi mustaxkamligi) shu xarorat uchun nikel asosidagi issikka bardosh pulatlarning mustaxkamligidan katta buladi.

VDU LARNING VA NIKEL ASOSIDAGI ISSIKBARDOSH PULATLARNING PUXTALIK XARAKTERISTIKASI.

Kotishma markasi	Yarimfabrikat	σ_{1000} Mpa. kuyidagi xaroratdi, °S			
		900	1000	1100	1200
VDU-1	CHivik	140	120	100	65
VDU-2	CHivik	95	80	65	40
VDU-3	List	105	85	65	40
JS-6K	CHivik	170	70	20	-
EP-868	List	30	15	-	-

VDU-1, VDU-2 plastik, shuning uchun xar xil xarakatda xar xil usullar bilan deformatsiyalanadi: bolgalash, shtamplash, chuktirish, botirish. Bir biri bilan yukori xaroratli kavsharlash vositasida birlashtiriladi. Diffuzion payvandlash xam kullash mumkin.

VDU-2, VDU-3 truba, chivik, list, sim, falga sifatida chikariladi. Bular asosan aviatsiya dvigatellari uchun ishlatiladi: lopatkalar, alanga stabilizatori, yonish kamerasi.

SINCHLOVCHI MATERIALLAR VA ULARNING XOSSALARI.

Kompozitsion materiallarni puxtalash uchun yukori puxtalikdagi:

- a) pulat simlar; volg'framdan, molibdendan olingan simlar,
ularning kotishmalaridan olingan simlar va
- b) bor, uglerod, oyna-shisha; alyuminiy nitridi va kremniy nitridi
oksidi monokristali tolalaridan foydalaniladi.

Simlar-eng arzon xammabop sinchlovchi material. Pulatdan va berilliydan olingan detallar uchun ishlatiladi. Volg'fram va molibdendan yasalgan simlar urta va yukori xaroratda.

Uglerodli tolalar. Bular poliakripnitrilli gidrotsellyulozali toladan yoki neftli smola asosida olingan tolalardan olingan. Uglerodli tolalarni olish texnologiyasi organik dastlabki tolalarni issik tahsirida parchalanishiga asoslangan. Kizdirish **boshkariladigan atmosferada** olib boriladi.

Uglerodli tolalarni ishlab chikarish quyidagi operatsiyalardan iborat:

1. **Oksidlash;**
2. **Karbonizatsiyalash;**
3. **Grafitlash.**

Tolalar 200-300⁰S da olib boriladi. Karbonizatsiya 900⁰S dan yuqorida vodorod muxitida utadi. Unga utga turgunlik xossasi beriladi 2500⁰S dan yuqorida uglerod tolasi xosil buladi.

METALL ASOSIDAGI TOLALAR BILAN SINCHLANGAN KOMPOZION MATERIALLARNI OLISH.

Xar xil matritsa materiallari va turli tolalar bilan sinchlangan kompozitlarni olish usulini tanlash quyidagi faktorlarga boglik:

1. Matritsa va puxtalovchilarning dastlabki materiallari ulchamlari, profili va tabiati;
2. Matritsa-puxtalovchi chegarasida mustaxkam boglanish xosil kilish imkoniyati;
3. Tolalarni matritsada bir tekisda taksimlanishini olish;
4. Kompozitsion materialni olish va undan detal yasash jarayonlarini bir vakt ichida olib borish (“sovmeshatg”);
5. Jarayonni iktisodiy tejamkorligi.

ALYUMINIY MATRITSA KOMPOZITSION MATERIALLAR.

Kompozitsion materiallarni matritsasi sifatida texnikaviy alyuminiy va uning kotishmalari ishlatiladi: Am_{ts}, Am_g, AD1, D16, SAP va boshkalar. Sinchlovchi material sifatida yukori puxtalikdagi pulat (08X18N9T; 1X15N4AM3; YeP322 va x.k) simlari, berilliy simlari,

bor, kremniy karbidi, uglerod tolalari. Pulat simlar bilan sinchlangan kompozitsion material prokatlanadi

NIKEL MATRITSALI KOMPOZITSION MATERIALLAR.

Kuprok issikbardosh nikel kotishmalari sinchlanadi; ishlash vaktini va xaroratini kutarish maksadida (1100-1200⁰S). Puxtalovchilar: **Al₂O₃ ning ipsimon kristallari** (muylovlari), kiyin yeriydigan metall va ularning volg'fram va molibden asosidagi kotishmalari simlari; uglerod va kremniy karbidi tolalari.

NOORGANIK MATRITSA ASOSIDAGI KOMPOZITSION MATERIALLAR.

Noorganik polimerlar asosidagi matritsalardan tuzilgan kompozitsion materiallar perspektiv material xisoblanadi.

Noorganik polimer boglovchilarning tipik vakillari: silikatlar, keramika, nitridlar, boridlar, karbidlar. Bularni olish oson. Maxsus xossasi: atom boglanishining puxtaligi polimer zanjirini tashkil kiladi.

Eng kup tarkalgani-keramik kompozitsion materiallar. Bular metallarning va kislorodsiz birikmalarning oksidlari(karbidlar, boridlar, nitridlar, silitsidlar) asosida yaratiladi.

KMM larning yaratilishi yangi texnikani yaratishga imkon beradi: yukori xaroratda ishlaydigan, yeyilmaydigan, puxta va x.k.

KERAMIK KOMPOZITSION MATERIALLAR ASOSIY TURLARI.

Bularda matritsa keramikadan yasalgan: metall yemas mineral xomashyoni (loylar) kizdirib bosim ostida presslab ("spekanie") olingan.

1. Xomashyo turiga bulinadi:

a) **Oksidli** (texnikaviy) keramika; metall oksidlari asosida: Al₂O₃;

ZrO₂; CaO; MgO; BeO; UO₂ .

b) **Oksidsiz**, asosiy kislorodsiz birikmalar: karbid MeC; borid MeB_n;

nitrid MeN; silitsid MeSi_n .

2. Struktura belgilariga karab KKM lar 5 gruxga bulinadi:

a) Dispersli;

b) Polikrsitallik yullanmagan (tartibsiz) tolalar ipsimon

kristallar va simlar bilan sinchlangan;

v) Yullangan (tartibli) tolalar bilan (shu bilan birga yevtektika

bilan) sinchlangan;

g) Kavatma-kavat-katlama;

d) Dona-kavatli.

UGLEROD-UGLERODLI KRMPOZITSION MATERIALLAR.

Aviatsiya-kosmik texnikasida kulaniladigan parspektiv materiallardan biri-bu uglerod-uglerodli (S-S) kompozitlardir. Bularda matritsa sifatida uglerod ishlatiladi. Bu kotgan termoreaktiv smolalarni (feneloformalg'degidli, furanovli) yukori xaroratda kizdirib olingan **koks** tuldargich sifatida **uglerod tolalari** ishlatiladi.

Bu tizimli materiallar kompozitsiyasiga tulduruvchi material sifatida uglerodli paxta, uglerodli matolar, uzilgan-kesilgan tolalar, buralgan iplar kiradi. Ikki tizimlisiga kushimcha-tuldargich sifatida matolar-tukimalar: kup tizimli materiallar tolalarni mahlum tartibda taxlash bilan olinadi.

Operatsiyalarning ketma-ketligi:

1. Uglerodli (yoki grafitli) tolalarni yoki matoni fenolli smola bilan

tuyintirish.

2. Boglovchini berilgan xarorat va bosimda kotirish.

3. Kerakli ulchamlargacha mexanik ishlash.

4. Karbonizatsiyalash maksadida kerakli atmosferada kizdirish.

TAYaNCH SUZLAR VA IBORALAR.

Kompozitsion materiallar. Matritsa. Sinchlovchi. Puxtalovchi. Nol-ulchamli tuldiruvchilar. Bir-ulchamli tuldiruvchilar. Nol ulchamli tuldirgichli kompozitsion materiallar. Alyuminiy matritsali kompozitsion materiallar (nol-ulchamli). Sinchlovchi materiallar va ularning xossalari. Simlar. Austenit klassi. Kiryalash (“volochenie”). Sovuklayin ishlash. Volg’fram va molibden olingan simlar. Kukun metallurgiyasi. Kiryalar (“filg’era”). Oksidli. Oksidsiz. Dispers KKM lar. Metall falgasi. Keramika-metall materiali-kermetlar. Infrakermet. Ulg’trakermet. Birdaniga issik urishi. Keramik kompozitsion materiallar asosiy turlari.

TEKSHIRUV SAVOLLARI:

1. Kompozitsion material kanday material?
2. Kompozitsion materiallarni aviatsiyadagi roli.
3. Kompozitsion materiallar xususiyatlari nimadan iborat?
4. K.M. klassifikatsiyasi.
5. Dispers puxtalanish nimaga asoslangan?
6. Tolali K.M. puxtalanishi nimaga asoslangan?
7. Alyuminiy matritsali K.M. xarakteristikalar.
8. Nikel matritsali K.M. xarakteristikalar.
9. Tola bilan puxtalash asoslari nima?
10. Sinchlovchi materiallarning vazifalari nimadan iborat?
11. Keramik materiallarga kanday materiallar kiradi?
12. Keramik kompozitsion materiallarni olish uchun kaysi xomashyolardan foydalaniladi?
13. KKM larning asosiy turlarini sanab bering.

MAHRUZA №17.

MAVZU: REZINALAR.

MAHRUZA REJASI:

1. Umumiy ma'lumotlar.
2. Rezina aralashmasi.
3. Rezina aralashmasini tayyorlash texnologiyasi.
4. Rezinadan detallar olish.
5. Samolyotsozlikda rezinani kullanishi.
6. Vulkanizatsiya.
7. Ishlash sharoitini rezina xossalriga tahsiri.
8. Rezinani saklash va ishlatish.

Rezina-kauchukni vulkanizatsiya kilish natijasida olingan maxsulot. Umuman olganda rezina aralashmasini-**kauchukdan** boshka moddalar vulkanizatsiya kilinadi.

Rezina - bu juda kam setka strukturali plastmassa. Bu yerda polimer boglovchi va yukori plastik xolda.

Rezinalarda boglovchi-bu kauchuk. Kauchuk:

a) tabiiy;

b) sintetik buladi. Kauchukning molekulalari chizigiy va kam shaxobchali bulib, chuvalchansimon yoki spiral konfiguratsiyaga ega xamda katta yegiluvchanligi bilan ajralib turadi.

Rezinaning asosiy xossalari:

a) yukori yelastiklik;

b) yukori yegiluvchanlik;

v) suyuqlik va gaz utmaslik:

g) yaxshi yelektroizolyatsiyaligi.

Bahzilari ishkalanishga karshilik, yaxshi demfirlash, aviatsiya yokilgilariga va yoglariga turgunligi, karama-karshi va kup marta tahsir kiluvchi kuchlarga chidamligi xossalriga xam ega.

Yukoridagilarni xisobga olib, rezina uzi va boshka materiallar bilan birgalikda samolyotsozlikda kup kulaniladi:

- a) samolyot pnevmatikalarini;
- b) samolyot yegiluvchan shlanglarini va truboprovodlarini;
- v) amartizatorlarni;
- g) membranalarni;
- d) prokladka va zichlagichlarni (“uplotniteli”);
- e) yokilgi uchun yumshok baklarni;
- j) rezinalashtirilgan gazmollarni ishlab chikarishda ishlatiladi.

Tashki muxit tahsirida (yoruglik, xarorat, azot, kislorod, radiatsiya va x.k) **rezina yeskiradi**-uz xossalarini uzgartiradi. **Yeskirish koefitsienti:**

$$K=Z_1/Z_2;$$

Z_1 -yangi rezina yegiluvchanligi;

Z_2 -eskirgan, yahni 3 yil davomida tabiiy sharoitda yoki -70^0 Sda 144 soat davomida sunhiy yeskirgan rezina yegiluvchanligi.

Yana sovukka chidamlilik koefitsenti xam bor:

$$K_{\text{sovuk}}=\delta_{\text{sovuk}}/\delta_0 ;$$

bu yerda: δ_0 -uy xaroratida rezinadan yasalgan namunaning chuzilishi.

δ_{sovuk} -sovitilgan-muzlatilgan xaroratdagi chuzilishi.

Umuman, sovukka chidamlilik rezinaning murtlashish xarorati bilan aniklanadi (t_{murt}). Bunda rezina uzining yelastikligini yukotadi, urilsa murtligi buziladi.

REZINA ARALASHMASINI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI.

Rezina xar xil ingridientlarning murakkab aralashmasidir. Bularning xar biri rezina xossalarini yaratishda uzining mahlum vazifasini bajaradi. Rezinaning asosi-bu kauchuk. Bunga xar xil kushimchalar kushiladi: vulkanizatsiya kiluvchi moddalar, tezlatgichlar-katalizatorlar, tuldirgichlar, plastifikatorlar, yeskirishni kamaytiruvchilar, buyoklar va x.k.

Vulkanizatsiya kiluvchilar: oltingugurt; magniy oksidi; peroksidlar, nitro-birlashmalar. Bular makromolekulalar orasida kundalang boglanish xosil kilishda tugridan-tugri katnashadilar. Bularning xajmi 5-7% ni tashkil kiladi. Kattik rezinada, masalan, yebonitda 30% gacha tezlatgichlar (tiuram, kantaks, kurgoshin oksidi) vulkanizatsiya jarayonini tezlatadi.

Tuldirgichlar kauchukka tahsiriga karab: a) aktiv; b) lokayd (inert) buladi. Aktiv tuldirgichlar (chirk-saja, kremniy oksidi) rezinaning kattikligini va mustaxkamligini oshiradi va yeyilishga karshiligini oshiradi. Lokayd tuldirgichlar (talk, bur va x.k) rezinani arzonlashtirish uchun kushiladi.


Plastirikatorlar: texnikaviy vazelin; parafin; stсарinli kislota; mineral va usimlik moylari va x.k. Bular 8-30% xajmni egallaydi, ishlashni yengillashtiradi, yelastiklikni oshiradi va sovukka chidamlikni oshiradi.

Eskirishni kamaytiruvchilar: alg’dol, meozon, parafin, vosk va x.k. Bular yeskirishni kamaytiradi, kislorodni birikishiga karshilik kursatadi. Kislorod kauchukdagi ikki boglanishli joylariga birikadi. Natijada kauchuk makromolekulalari uziladi, kiskaradi, yegiluvchanligi, yelastikligi kamayadi. Murtlashadi va rezina yuzasida darzdlar setkasi paydo buladi. Yeskirishni kamaytiruvchilar: a) ximiyaviy va b) jismoniy tahsir kiluvchilarga bulinadi. Ximiyaviy tahsir kiluvchilar (alg’dol, neozon) rezinaga va kauchuk perekisiga kirib olgan (diffuziyalangan) kislorod bilan birlashib, uni oksidlanishini tuxtatadi. Jismoniy tahsir kiluvchilar (parafin, vosk) yuzada plenka xosil kilib, kislorod diffuziyasini kiyinlashtiradi.

Buyoklar (ulg’tramarin) fakat dekorativ vazifa bajarmay, yoruglik tufayli yeskirishni tuxtatadi; chunki yorugning kiska tulkinli kismini yutadi.

Kauchuk xal kiluvchi rolni uynaydi. Tabiiy kauchuk, kauchuk daraxtining sokidan (“lateksa”) olinadi. **Lateksa** tarkibida 30-37% kauchuk buladi.

Ximiyaviy jixatdan toza va tabiiy kauchuk-chegaranmagan uglerod



bu yerda $n=1000-4000$.

Tabiiy kauchuk yumshok yelastik material; zichligi 0,91-0,94 g/sm³; Organik yerituvchilarda (benzin, benzol, xloroform va x.k) yaxshi yeri ydi. Amorf xolda buladi. Uzoq saklansa

kristallanadi. CHuzib deformatsiyalash kauchukni kristallantiradi. Kristallik fazaning xosil bulishi uchun puxtalantiradi -70°S da kauchuk yelastiklikni yukotib, murtlashadi $+70^{\circ}\text{S}$ gacha kizdirish uchun plastikligini oshiradi. U 200°S da parchalanadi. Tabiiy kauchuk asosidagi rezina yukori puxtalikka va yelastiklikka ega.

Rezina ishlab chikarishda kuprok sunhiy kauchuk kuprok ishlatiladi. Ularning xossalari kuprok. Sunhiy-sintetik kauchuk spirtidan, neftdan, neft olishdagi yulakay gazdan, tabiiy gazdan olinadi.

Butadienli kauchuk (SKB) gaz xolatidagi butadien uglevodorodini $\text{SN}_2=\text{SN}-\text{SN}=\text{SN}_2$ polimerizatsiya kilib olinadi, metallik natriy ishtirokida.

Butadienli kauchukni sovukka chidamliligi yemas: $-40--50^{\circ}\text{S}$. Maxsus rezinlar ishlab chikarishda kullaniladi.

